



**2021-YILGI MAVSUMDA O‘ZBEKISTON  
PROFESSIONAL FUTBOL LIGASI TOMONIDAN  
O‘TKAZILADIGAN MUSOBAQALAR  
REGLAMENTI**

**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

Mazkur Reglament (bundan buyon — Reglament) O‘zbekiston Professional futbol ligasi Ijroiya qo‘mitasining 2021-yil 11-fevraldagi yig‘ilishida ma‘qullangan. Ushbu Reglament O‘zbekistonda professional va yarim professional futbol klublari o‘rtasidagi 2021-yilgi musobaqalarni o‘tkazishning shartlari va nizomlarini belgilovchi, FIFA, OFK, O‘FA va O‘zPFL ustavlari hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatdir.



**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

<b>1-bob.</b> Umumiy qoidalar.....	8
<b>2-bob.</b> Musobaqalarning maqsad va vazifalari.....	8
<b>3-bob.</b> Musobaqalarni boshqarish.....	8
<b>4-bob.</b> Musobaqalar o'tkaziladigan joy.....	9
<b>5-bob.</b> Marketing, homiylik va musobaqalarni tashkil etish bilan bog'liq masalalar.....	9
<b>6-bob.</b> Merchendayzing.....	13
<b>7-bob.</b> Futbol klublarining musobaqalarda ishtirok etishi uchun moliyaviy shartlar.....	13
<b>8-bob.</b> Musobaqada ishtirok etish shartlari.....	15
<b>9-bob.</b> Musobaqalar hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi.....	17
<b>10-bob.</b> Futbolchilar bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini ro'yxatga olish tartibi.....	18
<b>11-bob.</b> Xorijlik futbolchilar va mutaxassislarni ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida shartlar.....	19
<b>12-bob.</b> O'zPFL ro'yxatidan o'tgan futbolchilarning musobaqalardagi ishtirokini tartibga solish.....	20
<b>13-bob.</b> O'zPFL komissarining Musobaqalardagi faoliyati.....	21
<b>14-bob.</b> Musobaqalarda hakamlik qilish.....	22
<b>15-bob.</b> Musobaqalarda nazoratchilik qilish.....	24
<b>16-bob.</b> Hakamlar qaroriga shikoyat yoki e'tiroz berish tartibi.....	25
<b>17-bob.</b> Futbol uchrashuvlarini o'tkazish tartibi.....	26
<b>18-bob.</b> Futbol klublari, klublar rahbarlari va futbolchilarning majburiyati.....	30
<b>19-bob.</b> Musobaqa ishtirokchilarining liboslariga qo'yiladigan talablar.....	33
<b>20-bob.</b> Futbol klublarining OAV bilan ishlashiga oid talablar.....	34
<b>21-bob.</b> Liga musobaqalarini o'tkazish formati.....	34
<b>22-bob.</b> Kubok musobaqalarini o'tkazish formati.....	36
<b>23-bob.</b> Musobaqa g'oliblarini aniqlash.....	38
<b>24-bob.</b> Musobaqa g'oliblarini taqdirlash.....	39

## To'liq va qisqa nomlar — atamalar ta'rifi

### Musobaqalarni boshqarish

FIFA	Xalqaro futbol federatsiyalari assotsiatsiyasi
OFK	Osiyo futbol konfederatsiyasi
O'FA	O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi
O'FA ma'muriyati	O'FA prezidenti, vitse-prezidentlari, O'FA bosh kotibi
O'zPFL	O'zbekiston professional futbol ligasi
O'zPFL ma'muriyati	O'zPFL bosh direktori, O'zPFL bosh direktorining o'rinbosari, Musobaqalar o'tkazish bo'limi boshlig'i, litsenziyalash bo'limi boshlig'i, klublarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i
HIQ	O'FAning Hakamlik-inspektorlik qo'mitasi
EQ	O'FAning Etika qo'mitasi
TIQ	O'FAning Tartib-intizom qo'mitasi
FMTQ	O'FAning Futbolchilarning maqomi va transferi bo'yicha qo'mitasi
NHP	Nizolarni hal qilish palatasi
HA	O'FA Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy assotsiatsiyalari
RO'O	O'zPFLning ro'yxatdan o'tkazuvchi organi

### Musobaqa ishtirokchilari

PFK	Professional futbol klubi
YAPFK	Yarim professional futbol klubi
HFK	Havaskor futbol klubi
FA	Futbol akademiyasi
FMM	Futbol mahorat maktabi
BO'FM	Bolalar-o'smirlar futbol maktabi
BO'SM	Bolalar-o'smirlar sport maktabi

### Musobaqalar

Musobaqalar	O'zbekiston Professional futbol ligasi tomonidan o'tkaziladigan barcha musobaqalar
Superliga	O'zbekiston professional futbol klublarining oliy toifali musobaqasi
U-21	U-21 chempionati (Superliga klublari qoshidagi yoshlar jamoalari)
U-18	U-18 chempionati (Superliga va Pro liga klublari qoshidagi yoshlar jamoalari)
U-16	OFK litsenziyalash talabiga asosan lizensiya talabgorlari o'rtasida o'tkaziladigan chempionat

U-14	OFK litsenziyalash talabiga asosan lizensiya talabgorlari o'rtasida o'tkaziladigan chempionat
Pro liga	O'zbekiston professional futbol klublarining birinchi toifali musobaqasi
Birinchi liga	O'zbekiston professional va yarim professional futbol klublari ishtirokidagi musobaqa
O'zbekiston kubogi	Superliga, Pro liga va Birinchi liga klublari ishtirokidagi musobaqa
Superkubok	Oliy toifali musobaqa g'olibi va O'zbekiston kubogining amaldagi g'olibi o'rtasida o'tadigan mavsumoldi uchrashuvi
O'zbekiston Liga kubogi	Professional futbol klublari ishtirokidagi xalqaro musobaqa
Ayollar musobaqalari	Ayollar jamoalari o'rtasidagi O'zbekiston chempionati (Oliy ligasi) va birinchiligi (Birinchi ligasi), O'zbekiston kubogi hamda U-16 chempionati
Uchrashuv	O'zPFL tomonidan o'tkaziladigan musobaqalardagi rasmiy o'yinlar

### Rasmiylar

Uchrashuv komissari	O'zPFL tomonidan uchrashuvning tashkil etilishi va o'tkazilishini nazorat qilish uchun tayinlangan shaxs
O'zPFLning hududiy vakili	O'zPFL bilan shartnoma asosida faoliyat olib boruvchi hududlardagi mutaxassis
Uchrashuv inspektori	O'FA tomonidan tayinlangan va uchrashuv davomida hakamlarni baholab boradigan shaxs
Futbol hakami	O'FA tomonidan futbol o'yini qoidalari va tartibga soluvchi boshqa hujjatlarga muvofiq uchrashuvni nazorat qilish va boshqarish uchun tayinlangan shaxs
VAR	Video yordamchi hakam
Stadion rasmiysi	Uchrashuv o'tadigan stadion uchun javobgar shaxs
Klub rasmiysi	Uchrashuv vaqtida klub uchun javobgar shaxs
Xavfsizlik uchun mas'ul	Ichki ishlar, Milliy gvardiya, FVV xodimlari, shuningdek, klubning xavfsizlik bo'yicha ofitseri, stadion styuardlari
Mahalliy koordinator	HA mas'ul xodimi

### Boshqa atamalar

Mehnat shartnomasini ro'yxatga olish	Klubga tegishli futbolchi yoki rasmiy shaxslarni musobaqalarda ishtirok etishi uchun mehnat shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish jarayoni
Transfer	Futbolchining o'tishi (transferi) deganda uning musobaqalarda ishtirok etishiga ruxsat berilishi bilan yakunlangan bir klubdan boshqasiga o'tishi
Transfer shartnomasi	Futbolchining o'tish tartibi, muddati va shartlari (shu jumladan, xarajatlarni qoplash shartnomasi mavjudligida futbolchilarning o'qitilishi, tayyorlanishi, mahoratini takomillashtirishi uchun sarflangan xarajatlarni to'lash)ni belgilovchi, futbol klublari yoki futbol klubi va sport maktabi o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama kelishuv
Transfer oynasi	Futbol klubining futbolchini sotib olishi yoki sotishi, shuningdek, ijaraga berishi yoki olishi amalga oshadigan davr
XTS	Xalqaro transfer sertifikat
Ijara shartnomasi	Ikki klub va futbolchi o'rtasida tuziladigan, o'tishning tartibi, muddati va shartlari (shu jumladan, to'lovlar)ni belgilaydigan uch tomonlama shartnoma
Futbolchining ijarasi	Futbolchining ijarasi deganda klub bilan shartnoma tuzgan futbolchining boshqa klubga quyidagi shartlar asosida vaqtinchalik o'ynash uchun o'tishi nazarda tutiladi: <ul style="list-style-type: none"> <li>• o'tish paytida futbolchi va u muayyan vaqtga tark etmoqchi bo'lgan klub o'rtasida keyinroq ham davom etadigan shartnomaning mavjudligi, bu shartnoma futbolchini boshqa futbol klubida vaqtinchalik o'ynaganidan so'ng tomonlarning mehnat munosabatlarini qayta tiklash ixtiyori borligidan dalolat beradi;</li> <li>• futbolchi yangi klubga o'tishiga qadar amaldagi mehnat shartnomasiga ega bo'lgan klubga futbolchining tarbiyalanishi uchun sarflangan xarajatlar qoplanishi huquqining saqlab qolinishi</li> </ul>
Sport mavsumi	kalendar yili doirasida rasmiy musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish va bevosita musobaqalar

vaqtini o'z ichiga olgan davr. Musobaqalar davri O'zPFL qatnashchilari o'rtasida o'tkaziladigan birinchi rasmiy uchrashuv kuni bilan boshlanadi va oxirgi rasmiy uchrashuv kuni bilan yakunlanadi.

Transferlarni ro'yxatga olish davri	Futbolchining kelgusi yoki joriy musobaqalarda ishtirok etishi uchun u klubdan bu klubga o'tishi mumkin bo'lgan davr
Legioner	O'zbekiston futbol klubiga ishlash uchun taklif etilgan chet el fuqarosi
Xorijiy mutaxassis	O'zbekiston futbol klubiga ishlash uchun taklif etilgan xorij fuqarosi
Mahalliy futbolchi	Jamoa sharafini himoya qilayotgan viloyatda doimiy yoki vaqtincha ro'yxatdan o'tgan futbolchi
Vositachi (uchinchi shaxs, agent)	Futbolchining bir klubdan ikkinchisiga transferi amalga oshayotganda uning huquqlarini himoya qiladigan yoki futbolchining amaldagi shartnomasi yakuniga yetib borayotgan vaqtda uning kelgusi rejalari yuzasidan muzokaraga kirishishi mumkin bo'lgan, shu futbolchi bilan qonuniy yozma kelishuvi mavjud bo'lgan shaxs.

**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

Mazkur Reglament Superliga, Pro liga, Birinchi liga, O'zbekiston kubogi, Liga kubogi, U-21, U-18, U-16, U-14 chempionatlari, ayollar Oliy va Birinchi ligasi, ayollar o'rtasida O'zbekiston kubogi, ayollar o'rtasida U-16 chempionati, erkaklar va ayollar Superkubogi kabi musobaqalarni (keyingi o'rinlarda — Musobaqalar) o'tkazish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, professional va yarim professional futbol klublari yoki boshqa tashkilotlarning taklifi bilan ham alohida musobaqalar o'tkazilishi mumkin. Mazkur Musobaqalar O'zPFL bosh direktori bilan kelishilgan nizom asosida o'tkaziladi.

Mazkur Reglament ikki — o'zbek va rus tillarida chop etilgan. Ikki til o'rtasida ehtimoliy tafovut vujudga kelsa, u holda o'zbek tilida yozilgan qismi ustuvor hisoblanadi.

## **2-bob. Musobaqalarning maqsad va vazifalari**

**2.1.** Musobaqalarning maqsadlari va vazifalari quyidagilarni:

- O'zbekiston futbolini rivojlantirish yo'lida milliy chempionat o'yinlarini professional darajada tashkil etish;
- O'zbekiston futbolchilarining mahorat darajasini oshirish;
- O'zbekistonlik yosh futbolchilarning mahorat darajasini oshirish hamda ularning "katta" futbolga kirib kelishlari mexanizmini takomillashtirish;
- O'zbekiston terma jamoalari va professional futbol klublarini xalqaro musobaqalar: jahon chempionatlari, Osiyo Kubogi, Olimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari, OFK Chempionlar ligasida ishtirok etishi uchun tayyorlash va muvaffaqiyatli ishtirok etishiga ko'maklashish;
- Futbol muxlislarining hordiq chiqarishlarini tashkil etish;
- O'zbekiston futbolini targ'ib etish va shu yo'l orqali o'zbekistonlik futbolchilarning chet el klublari nazariga tushishi uchun harakat qilish;
- O'zPFL tomonidan o'tkaziladigan Musobaqalarda g'oliblarni aniqlash;
- OFK musobaqalarida ishtirok etadigan klublarni aniqlashni nazarda tutadi.

## **3-bob. Musobaqalarni boshqarish**

**3.1.** Musobaqalarni boshqarish, tashkil etish va o'tkazilishini nazorat qilish O'zPFL tomonidan amalga oshiriladi.

**3.2.** Ikkinchi liga musobaqasi hamda Ikkinchi ligadan Birinchi ligaga o'tish o'yinlarini boshqarish, tashkil etish va o'tkazishni nazorat qilish O'FA tomonidan amalga oshiriladi.



**3.3.** Musobaqalar ushbu Reglament, shuningdek, FIFA, OFK, O'FA, O'zPFL tomonidan tasdiqlangan mazkur Reglamentga kiritilgan qo'shimchalar, maxsus nizomlar va ilovalar asosida o'tkaziladi.

#### **4-bob. Musobaqalar o'tkaziladigan joy**

**4.1.** Musobaqalar litsenziyalash bo'yicha Reglament asosida ishlab chiqilgan "Stadionlar to'g'risidagi nizom"ga muvofiq O'zPFL tomonidan ruxsat etilgan stadionlarda o'tkaziladi.

**4.2.** Musobaqalarda ishtirok etuvchi klublar o'z stadioniga ega bo'lmasa hamda uy uchrashuvini o'tkazish uchun boshqa tashkilotga qarashli stadion bilan shartnoma tuzish majburiyati yuzaga kelsa, u holda mazkur shartnoma O'zPFL ishtirokida uch tomonlama tuzilishi shart.

**4.3.** Fors-major holatida Musobaqa o'tkazish uchun stadionni o'zgartirishga to'g'ri kelsa, mezbon klubga O'zPFL bilan uch tomonlama kelishuvga erishgan stadionlardan birida uchrashuvni o'tkazishga ruxsat beriladi.

**4.4.** Musobaqa o'tadigan kundan bir kun avval mezbon klub O'zPFL komissariga stadionning o'yinga tayyorgarligi to'g'risida dalolatnoma taqdim etadi.

#### **5-bob. Marketing, homiylik va musobaqalarni tashkil etish bilan bog'liq masalalar**

**5.1.** O'zPFL o'z yurisdiksiyasi ostida bo'lgan Musobaqalar va barcha boshqa tadbirlar bilan bog'liq huquqlarga, ularning mazmuni, vaqti, joyi bo'yicha qonunchilikka oid biror-bir cheklovlarisiz egalik qiladi. Ushbu huquqlar, jumladan, moliyaviy huquqlarning har qanday turlari, har qanday shakl (to'g'ridan-to'g'ri efir, yozuv yoki videolavhalar)da yozilgan audiovizual va radioyozuvlarga nisbatan huquqlar, ijro etish va efirga uzatish, multimedia huquqlari, marketing va reklama huquqlari, shuningdek, emblema yoki mualliflik huquqida kelib chiquvchi intellektual mulk huquqlarini o'z ichiga oladi.

**5.2.** O'zPFLning musobaqalar bilan bog'liq tijorat va televizion huquqlariga shu jumladan:

- O'zPFL tomonidan o'tkaziladigan Musobaqalar rasmiy homiylari (shu jumladan, bosh homiy) va hamkorlar bilan ishlash va shartnomalar tuzish;
- Musobaqalarning O'zPFL tomonidan tasdiqlangan nomlanishlari, logotipi va boshqa rasmiy belgilaridan reklama, tijorat maqsadlarida foydalanish;
- televizion huquqlar, uchrashuvlardan to'la hajmda va har qanday texnik usullarda joy va mazmuni bo'yicha hech qanday cheklovlarisiz televizion signalni ishlab chiqarish va butun dunyoga uzatish, translyatsiya lavhalaridan informatsion dasturlarda, haftalik sharhlarda va boshqa dasturlarda

foydalanish, har bir uchrashuvning translyatsiyasini internetda joylashtirish uchun foydalanish huquqi;

- Musobaqalarda ishtirok etuvchi klublar ushbu huquqlarni amalga oshirish uchun bosh axborot hamkor, teleradiouzatuvchilar yoki boshqa tashkilotlar bilan muzokaralar olib borish vakolatini O'zPFLga topshiradi;
- uchrashuvlarni efirga uzatish huquqini qo'lga kiritgan teleradiouzatuvchilar musobaqa bosh homiysi va rasmiy hamkorlar reklama roliklarini efirga joylashtirishlari shart. Reklama roliklarini uzatish tartibi O'zPFLning "Tijorat Reglamenti" bilan belgilanadi;
- radio huquqlar – uchrashuvlar radio signalini ishlab chiqish va butun dunyoga barcha diapazonlarda mazmun bo'yicha hech qanday cheklovlersiz uzatish huquqi;
- vizual huquqlar – uchrashuv davomida ma'lumot saqlovchi manbalardan va stadiondagi vizual hududdan, shu jumladan, televizion kameralar ko'radigan zonalardan reklama va informatsion materiallarni joylashtirish uchun foydalanish (tegishli stadionning futbol maydonining perimetri bo'ylab reklama qurilmalarida, futbolchilar va hakamlar liboslarida shevronlar ko'rinishida, zaxiradagi futbolchilarning o'rindiqlarida vizual reklamani joylashtirish huquqi), jumladan, tegishli stadionning elektron-informatsion tablosida hamda boshqa axborot manbalarida vizual reklamani joylashtirish huquqi;
- uchrashuv davomida stadionda audioreklamani joylashtirish huquqi;
- telefon aloqasi orqali sms-translyatsiya olib borish huquqi;
- internet televidenie – tadbirlarning video va/yoki audiosini qismlari TCP/IP protokoli asosida bitta manzil maydoni orqali mantiqiy ravishda o'zaro bog'langan global axborot tarmog'idan foydalangan holda efir orqali, kabel orqali omma e'tiboriga havola qilish, ommaviy namoyish etish, tarqatish.
- betting – sport o'yinlariga pul tikiluvchi (azart o'yinlar, interfaol bukmekerlik kontoralari, totalizatorlar, sport musobaqalari bo'yicha garov) maxsus internet saytlar, mobil ilovalarda internet orqali kirish imkoniyatini berish va mobil aloqa orqali, shuningdek, tasvirni va/yoki audioni tarqatishning qonun bilan taqiqlanmagan boshqa har qanday usullari orqali sport musobaqalari videotranslyatsiyasini amalga oshirish.
- uchrashuvdan keyingi matbuot anjumani, klub futbolchilari va rasmiy shaxslar bilan o'tkaziladigan flesh-intervyu materiallaridan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqi;
- merchendayzing mahsulotlarini namoyish qilish, bepul tarqatish va sotish huquqi (uchrashuvda mezbonlik qiladigan klub bilan kelishilgan ravishda), shuningdek, musobaqaning rasmiy homiy/hamkorlari nomidan stadionda maxsus sovrinlarni e'lon qilish huquqi;


- o‘yin maydonining perimetri bo‘ylab reklama to‘siqlarining quyida keltirilgan sonidan kelib chiqib musobaqaning bosh homiysi va rasmiy hamkorlari logotiplari hamda boshqa ma‘lumotlarini joylashtirish uchun foydalanish huquqi. Bunda reklama to‘siqlari maydon o‘lchamidan kelib chiqqan holda umumiy soni 43 tadan kam bo‘lmasligi talab etiladi. Superligada shularning 23 tasi (1-rasm), Pro ligada esa 37 tasi (2-rasm) O‘zPFL homiy/hamkorlari uchun ajratiladi. Klub tomonidan foydalaniladigan reklama to‘siqlarining sonini ko‘paytirish masalasi shartli ravishda O‘zPFL bilan tijoriy asosda kelishiladi;
- elektron reklama to‘siqlari mavjud hollarda Superliga va Pro liganing bosh homiysi va rasmiy hamkorlari logotiplari hamda boshqa ma‘lumotlarini joylashtirish tartibi rejasi O‘zPFL tomonidan belgilanadi. Bunda elektron reklama to‘siqlaridagi namoyish Superliga uchun 50 foiz miqdorda, Pro liga uchun 90 foiz miqdorda O‘zPFL homiy/hamkorlari uchun taqdim etiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, FIFA, OFK va O‘FA tomonidan belgilangan qoidalarida nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

**5.3.** Ushbu huquqlarni eksklyuziv asosda yoki uchinchi tomon bilan hamkorlikda yoki to‘laligicha uchinchi tomon vositachiligida amalga oshirilishi haqidagi qaror faqat O‘zPFL tomonidan qabul qilinadi. Tijorat va televizion huquqlardan foydalanishga oid barcha masalalar musobaqa ishtirokchilari uchun ijro etilishi majburiy bo‘lgan O‘zPFLning “Tijorat Reglamenti” bilan belgilanadi.

**5.4.** Futbol klubi uchrashuv o‘tkazadigan stadion maydonining ikki darvozasi ortida hamda maydonning markaziy qismida O‘zPFL homiylarining reklamasini joylashtirish uchun reklama to‘siqlari bilan ta‘minlashi shart:

**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

### Суперлига учун реклама тўсиқларининг тақсимланиш схемаси




\*ЎзПФЛ томонидан фойдаланилмаган реклама тўсиқлари клублар томонидан фойдаланиши мумкин.

\*Реклама тўсиқлари ҳажми - 1м\*6м

\*Реклама тўсиқлари майдонга нисбатан 90° даража бурчак остида туриши лозим.

1-rasm

### Про лига учун реклама тўсиқларининг тақсимланиш схемаси



\*ЎзПФЛ томонидан фойдаланилмаган реклама тўсиқлари клублар томонидан фойдаланиши мумкин.

\*Реклама тўсиқлари ҳажми - 1м\*6м

\*Реклама тўсиқлари майдонга нисбатан 90° даража бурчак остида туриши лозим.

2-rasm

**5.5.** Hisob va vaqt namoyish etiladigan katta ekranda O'zPFL homiylarining tovar belgisi namoyish etilishi ta'minlanishi kerak.

**5.6.** Uchrashuv o'tkazilishi bilan bog'liq barcha bosma materiallarda, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari, chiptalar, axborotnomalar, afisha va veb-saytlarda rasmiy homiylarga tegishli axborot joylashtirilishi shart.

**5.7.** Mavsum startidan oldin klub o'zi hamkorlik qilayotgan va istiqbolli homiylar haqidagi ma'lumotlarni (kompaniyaning yuridik nomi, ishlab chiqarish sohasi, asosiy faoliyati) O'zPFLga taqdim etishi shart.

**5.8.** Uchrashuvlar vaqtida stadion hududidan joy oladigan homiylar haqidagi har qanday reklama-axborot tusiga ega material O'zPFL marketing bo'limi bilan rasmiy kelishilgan bo'lishi lozim.

**5.9.** Musobaqa titul homiysi eksklyuziv huquqlarga ega bo'lib, O'zPFL titul homiy talabiga ko'ra mazkur tashkilotga raqobatdosh bo'lgan boshqa tashkilotlar bilan bog'liq reklamalarni teletranslyatsiyalar vaqtida hamda maydon perimetri bo'ylab ko'rsatishni taqiqlash huquqiga ega.

**5.10.** Reglamentning marketing sohasi va tegishli marketing huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq biror-bir bandiga rioya qilmagan klubga nisbatan moliyaviy intizomiy choralar ko'riladi.

**5.11.** O'zPFL homiylari musobaqalarda homiylik qilish bo'yicha qo'ygan shartlar O'zPFLning "Tijorat Reglamenti" asosida tartibga solinadi.

## **6-bob. Merchendayzing**

**6.1.** Futbol klublari merchendayzing mahsulotlari (klubning ramzlari tushirilgan suvenir mahsulotlari)ni ishlab chiqarish huquqiga ega. Agar mahsulotni bevosita ishlab chiqarish oldidan unda O'zPFL logotipi yoki homiylariga tegishli joylar bo'lsa, aksessuarlar eskizi va dizayni O'zPFL marketing bo'limiga tasdiqlash uchun taqdim etilishi lozim.

**6.2.** Musobaqalar ishtirokchilari yangi mavsum oldidan o'z madhiyasi va ramziga (maskot) ega bo'lishi tavsiya etiladi.

**6.3.** Futbol klubidan futbol mavsumi boshlangunga qadar o'z stadionida klub atributlari sotiladigan savdo shaxobchasini tashkil etishi shart.

## **7-bob. Futbol klublarining musobaqalarda ishtirok etishi uchun moliyaviy shartlar**

**7.1.** Futbol klublari O'zPFL musobaqalarida qatnashish uchun belgilangan miqdorda qatnashchilik badal pulini (keyingi o'rinlarda – badal) to'lab berishi kerak. Qatnashchilik badali miqdori O'zPFL Ijroiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

O'zPFLning ayollar futbolini rivojlantirish dasturi asosida ayollar jamoalari barcha musobaqalar uchun qatnashchilik badali to'lovidan ozod etiladi.

**7.2.** Musobaqalarda ishtirok etuvchi futbol klublari uchrashuvlarni tashkil etish bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

**7.3.** Mezbon klublar musobaqalarda faoliyat olib boruvchi hakamlar brigadasi, nazoratchilar hamda komissarlar uchun ikki tomonlama yo'lkira, yashash va ovqatlanish bilan bog'liq xarajatlar to'lovini o'z zimmasiga oladi. Mazkur to'lovlar o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

**7.4.** Agar klub musobaqa ishtirokchilari tarkibidan chiqarilgan bo'lsa, u tomonidan avval amalga oshirilgan badal to'lovlari qaytarilmaydi. Shuningdek, ishtirokchilar tarkibidan chiqarilgan klubning badal pulidan qolgan qarzdorligi to'liq to'lab berilmagunicha, mazkur klub O'FA hamda O'zPFL tomonidan tashkil etiladigan musobaqalarda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

**7.5.** O'zPFL o'zi tashkil etayotgan musobaqalarda faoliyat olib boruvchi barcha hakamlar, nazoratchilar hamda komissarlar xizmati uchun to'lovlarni zimmasiga oladi hamda naqdsiz to'lov orqali amalga oshiradi.

**7.6.** Musobaqalarda faoliyat olib boruvchi rasmiy shaxslar xizmati uchun to'lovlar O'zPFL Ijroiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

**7.7.** O'zPFL qatnashchilik badali hisobidan Musobaqalarni o'tkazish bo'yicha barcha sarf-xarajatlar hamda tashkilot faoliyati bilan bog'liq boshqa xarajatlarni qoplaydi. Mavsum yakunida O'zPFL o'z a'zolariga xarajatlar yuzasidan moliyaviy hisobot taqdim etadi.

**7.8.** Superkubok, shuningdek, O'zbekiston kubogi va Liga kubogi musobaqalarining final uchrashuvlarida faoliyat olib boruvchi rasmiylar uchun ikki tomonlama yo'lkira, yashash va ovqatlanish bilan bog'liq xarajatlar O'zPFL hisobidan amalga oshiriladi. Mazkur uchrashuvlarda faoliyat olib borgan rasmiylar uchun xizmat to'lovlari Superliga uchrashuvlari uchun belgilangan to'lovlar miqdorida amalga oshiriladi.

Shuningdek, Musobaqa markazlashgan holatda o'tkazilgan taqdirda uchrashuvlarida faoliyat olib boruvchi rasmiylar uchun ikki tomonlama yo'lkira, yashash va ovqatlanish bilan bog'liq xarajatlar ham O'zPFL hisobidan amalga oshiriladi.

**7.9.** Liga kubogi musobaqasini tashkillashtirish va o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlar alohida Nizom orqali tartibga solinadi.

**7.10.** Badal to'lovini, jarimalar bo'yicha qarzdorlikni, shuningdek, legioner futbolchi va xorijiy mutaxassislarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun belgilangan to'lovlarni to'lamagan yoki belgilangan muddatda to'liq to'lamagan klub O'zPFL taqdimnomasiga ko'ra musobaqalardan chetlashtirilishi mumkin.

**7.11.** Mezbon jamoa mehmon jamoaning rasmiy murojaatiga asosan kamida 200 ta bepul chipta ajratishi shart.

**7.12.** Litsenziyalash Reglamenti talablariga ko'ra, klublar yilda ikki marta O'zPFL tomonidan jalb etilgan auditorlar tomonidan audit tekshiruvidan o'tkaziladi. Audit xizmati uchun to'lov klub tomonidan qoplanadi.

**7.13.** Klublar har chorakda keyingi oyning 25-sanasiga qadar moliyaviy hisobotni (buxgalteriya balansi, 1-shakl) hamda moliyaviy natijalar haqidagi hisobotni (2-shakl, sarf-xarajatlar va daromadlar tavsifi) O'zPFLga taqdim etishi lozim.

## **8-bob. Musobaqada ishtirok etish shartlari**

**8.1.** Musobaqalarda ishtirok etuvchi jamoalarning Musobaqaga qo'shilishi yoki undan chiqib ketishi masalasi o'tgan mavsum musobaqalari natijasiga ko'ra aniqlanadi. Biroq klub Musobaqada qaysi o'rinni egallashidan qat'i nazar agar u litsenziyalash talablarini bajara olmasa, O'FA Litsenziyalash qo'mitasi litsenziyalash tahlillari asosida o'z xulosasini taqdim etishi hamda mazkur xulosa asosida klubni O'zPFL ishtirokchilari safidan chiqarib tashlashni talab qilish huquqiga ega.

**8.2.** Musobaqa ishtirokchilari 2022-yilgi mavsumda ishtirok etishlari uchun 2021 yilning 31 iyuliga qadar "Litsenziyalash Reglamenti" talablarini bajarishlari shart.

**8.3.** "Litsenziyalash Reglamenti"ga ko'ra talab qilingan U-21, U-18, U-16, U-14, U-10 jamoalari ("Litsenziyalash Reglamenti"ga asosan), shuningdek, O'FA qaroriga asosan futzal, ayollar hamda ayollarning U-16 jamoalarini tashkil ("Litsenziyalash Reglamenti" va O'FA Ijroqo'mi Byurosi qaroriga asosan) qilmagan yoki ularning musobaqalardagi ishtirokini ta'minlay olmagan klub 2022-yilgi mavsum uchun klublarni litsenziyalashdan o'tkazish talablaridan o'ta olmagan hisoblanadi. Mazkur jamoalarning 2022-yilgi Musobaqada ishtirok etishi masalasi O'FA tomonidan ko'rib chiqiladi.

**8.4.** Superliga va Pro liga klublarining U-18 jamoalari U-18 chempionatida ishtirok etishlari shart.

**8.5.** Mavsum natijalariga ko'ra yuqoriroq ligada ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan klub ushbu huquqdan voz kechsa yoki unda mazkur ligada ishtirok etish uchun Reglament asosida to'siq bo'lsa, uning o'rnini mavsum yakuniga ko'ra keyingi o'rinni egallagan boshqa klub bilan to'ldiriladi. Bunda yangi qo'shilayotgan klub litsenziyalash talablariga javob berishi shart.

**8.6.** O'zbekiston milliy va olimpiya terma jamoalariga uch va undan ko'p futbolchisini bergan klublar chempionat va O'zbekiston kubogi uchrashuvlari sanasini boshqa kunga ko'chirishni so'rab murojaat qilishga haqlidir.

**8.7.** OFK o'z musobaqalari sanasini ko'chirgan taqdirida mazkur musobaqada ishtirok etayotgan klublar ham O'zbekiston chempionati va O'zbekiston kubogi uchrashuvlari sanasini ko'chirishni so'rab murojaat qilishi mumkin.

**8.8.** Uchrashuvga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagan jamoaga texnik mag'lubiyat (-/+), raqib jamoaga esa texnik g'alaba (+/-) yoziladi. Ikkinchi marotaba

uchrashuvga uzrsiz sabablarga ko'ra yetib kelmagan jamoa O'zPFL Ijroqo'mi qarori bilan musobaqalardan chetlashtiriladi.

**8.9.** Musobaqalardan chetlashtirilgan jamoa agar uchrashuvlarning 50 foizi va undan kamini o'tkazgan bo'lsa, uning natijalari bekor qilinadi. Ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchini saqlab qoladi. Agar jamoa uchrashuvlarning 50 foizdan ko'pini o'tkazgan bo'lsa, bunday jamoaga qolgan uchrashuvlar uchun texnik mag'lubiyat (-: +), raqib jamoalarga esa texnik g'alaba (+: -) yoziladi. Ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchini saqlab qoladi. Fors-major holati sabab musobaqa formatiga o'zgartirish kiritilgan bo'lsa, o'yinlar foizini aniqlash shu o'zgarishga asosan hisoblanadi.

**8.10.** Agar klub mazkur Reglamentga ko'ra O'zPFL tomonidan musobaqadan chiqarib yuborilsa, ammo faoliyatini davom ettirsa, u holda mazkur klubga O'zPFL Ijroqo'mi qarori bilan kelasi mavsumni bitta quyi ligadan boshlash imkoniyati berilishi mumkin.

**8.11.** Agar klub faoliyatini tugatsa, u O'zPFL qatnashchilari safidan chetlashtiriladi. Har qanday boshqa klub shu klubning nomi, har qanday atributlari, belgilari, ramzlari va tarixidan foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi. Agar mazkur klub faoliyatini qayta tiklasa, u holda o'z ishtirokini HA tomonidan o'tkaziladigan Ikkinchi liga musobaqasidan boshlashi kerak.

**8.12.** Professional futbol klubi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida o'z nomi yoki tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarsa, yangi klub avvalgi klubning huquqiy vorisi hisoblanadi va futbolchilar, murabbiylar, klubning boshqa xodimlari oldida oylik ish haqi hamda boshqa to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblardagi buzilishlar uchun to'liq javobgar bo'ladi. Shuningdek, u O'FA, O'zPFL va O'zbekiston Respublikasi soliq organlari oldidagi qarzdorlikni to'lash uchun javobgar hisoblanadi. Keyinchalik ushbu klubning O'zPFL o'tkazadigan musobaqalarda ishtirok etishiga ruxsat O'FA Ijroiya qo'mitasi Byurosining qarori bilan beriladi. Mazkur holatda klubning yangi egasi qarzdorlik masalasini hal qilish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olib, biroq qarzlardan qutulishga yangi mavsum startiga qadar ulgurmasa, u holda viloyat hokimining rasmiy kafolati ostida mazkur klubga musobaqada ishtirok etish uchun ruxsat berilishi mumkin.

**8.13.** Superliga va Pro liga klublari O'zPFL tomonidan o'tkaziladigan barcha Musobaqalarda futbolchilarning funksional holatini masofadan turib monitoring qilish imkonini beruvchi moslamadan foydalanishi hamda bu boradagi hisobotni O'FA texnik boshqarmasining ilmiy-uslubiy guruhiga taqdim etishi shart. Klub ushbu moslamalarga ega bo'lmasa, O'FA texnik boshqarmasining ilmiy-uslubiy guruhi mazkur klub futbolchilarini jismoniy tayyorgarlik bo'yicha testdan o'tkazadi.

**8.14.** Stadionning yoritish tizimi "Stadionlar to'g'risidagi nizom" da keltirilgan talablarga javob bermasa va shu stadiondagi uchrashuvda quyosh nurida o'yinni tashkil qilish havo haroratidan kelib chiqib futbolchilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatsa ("Meditsina Reglamenti" ga asosan), O'zPFL mazkur uchrashuvni yoritish



tizimi talabga javob beradigan boshqa maydonda o'tkazish bo'yicha qaror chiqarishga haqli. Bu holatda mezbonlik bilan bog'liq mazkur Reglamentda ko'rsatilgan barcha majburiyatlar mezbon klubning o'zida qoladi.

**8.15.** Ayollar Oliy ligasida maydonga chiqayotgan futbolchi 2006 yil yoki undan katta bo'lishi shart. Ayollar Birinchi ligasida maydonga chiqayotgan futbolchi 2007 yil yoki undan katta bo'lishi shart.

**8.16.** U-21 jamoalari o'rtasidagi o'yinlar o'tadigan stadion maysasi "Stadionlar to'g'risidagi nizom" talablariga javob berishi shart.

**8.17.** Klub va shu klub qoshidagi farm-klub qayd etgan natijasidan qat'i nazar bir ligada ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **9-bob. Musobaqalar hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi**

**9.1.** O'zPFL musobaqalarida ishtirok etuvchi klub dastlab shartli ravishda litsenziyalash (Superliga va Pro liga klublari) va monitoring (Birinchi liga klublari) jarayonidan o'tishi lozim.

**9.2.** Ariza hujjatlarini rasmiylashtirish O'zPFL tomonidan belgilangan jadvalga muvofiq amalga oshiriladi. Ariza hujjatlarini rasmiylashtirish muddatlariga amal qilmaganlik uchun O'FANing "Intizom kodeksi"ga muvofiq jarima solinadi. Qayta ariza berishga jarima to'langanidan keyingina ruxsat beriladi.

**9.3.** Klubning O'zPFL bilan bog'liq hujjatlarini rasmiylashtirish huquqi klub rahbariyati tomonidan vakolatli shaxslarga (sport direktori, texnik direktor yoki litsenziyalash menejeri) beriladi.

**9.4.** Superliga va Pro liga klublari O'zPFLning onlayn ro'yxatga olish tizimi orqali shartli ravishda ro'yxatdan o'tishlari lozim. Bunda ro'yxatga olish uchun taqdim etilgan hujjatlar (hujjatlar ro'yxati klublarga elektron shaklda yuboriladi) keyinchalik O'zPFLga taqdim etiladigan asl nusxasi bilan mos kelishi shart. Onlayn ro'yxatdan o'tkazilmagan klub rasmiylari uchun litsenziya taqdim etilmaydi.

**9.5.** Musobaqalarda ishtirok etish huquqini beruvchi litsenziya hujjatlari rasmiylashtirilganidan so'ng (talab etilgan hujjatlar to'liq taqdim etilgan hamda klub rasmiylari elektron bazaga kiritilgach) litsenziyalar klubning vakolatli vakiliga uning imzosi bilan tasdiqlangan shaxsiy mas'uliyati ostida taqdim etiladi.

**9.6.** "Litsenziyalash Reglamenti"ga asosan klub o'z rahbariyati tarkibini O'zPFL ro'yxatidan o'tkazish shart (bosh direktor, sport direktori, texnik direktor, xavfsizlik bo'yicha ofitser, matbuot kotibi, bosh murabbiy, katta murabbiy, yordamchi murabbiy, jismoniy tayyorgarlik bo'yicha murabbiy, darvozabonlar murabbiyi, tahlilchi, ma'mur, shifokor, massajchi, fizioterapevt). Klubning qaysi ligada ishtirok etishiga qarab, uning O'zPFL ro'yxatidan o'tishi shart bo'lgan tarkibi "Litsenziyalash Reglamenti"ga asosan tartibga solinadi.

## **10-bob. Futbolchilar bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini ro'yxatga olish tartibi**

**10.1.** Futbolchilarni musobaqalarga ro'yxatdan o'tkazish 2021-yilning 4-yanvaridan 2021-yilning 12-mart kuniga qadar davom etadi. Yozgi transfer oynasi esa 2021-yilning 5-iyulidan shu yilning 31-iyuliga qadar ochiq bo'ladi.

**10.2.** Futbol klubi futbolchi bilan yilning istalgan davrida shartnoma tuzish huquqiga ega. Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 1 oy ichida O'zPFL ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

**10.3.** Futbolchini musobaqada ishtirok etishi uchun qo'shimcha ariza bilan ro'yxatga qo'shish mumkin. Talab etiladigan hujjatlar:

- o'tishi va shartnomasini tasdiqlovchi ilova;
- transfer shartnomasi (yoki ijara shartnomasi);
- futbolchi uchun mashg'ulot kompensatsiyasi to'langanligini dalillovchi ma'lumotnoma.

**10.4.** Klub o'z rasmiysini istalgan vaqtda O'zPFL ro'yxatidan chiqarishi mumkin. Bunday holatda klub O'zPFLni yozma ravishda ogohlantirishi va uch kun muddat ichida ozod etilgan shaxs litsenziyasini O'zPFLga topshirishi lozim.

**10.5.** Musobaqa ishtirokchilari yozgi transfer oynasida 10 nafardan ortiq bo'lmagan futbolchilarni qo'shimcha ariza bilan qayta ro'yxatdan o'tkazishi mumkin.

**10.6.** Futbol klublari o'zlariga qarashli bo'lgan futbol akademiyasi/maktabi yoki shu klubiga birlashtirilgan FMM, BO'FM tarbiyalanuvchilarini (2003 va undan keyin tug'ilgan) chegaralanmagan miqdorda yilning istalgan davrida O'zPFL ro'yxatidan o'tkazishlari mumkin.

**10.7.** Futbol akademiyasi/maktabi, FMM, BO'FM va BO'SM tarbiyalanuvchisi o'z yosh toifasidagi musobaqalarda ishtirok etish uchun boshqa klubga qarashli akademiya/maktab, FMM, BO'FM va BO'SM tarkibida 2021-yilning 15-sentabriga qadar ro'yxatdan o'tishi shart.

**10.8.** Klub o'z akademiyasi/maktabi tarbiyalanuvchisini musobaqalar uchun futbolchilar soniga nisbatan belgilangan cheklovga qo'shimcha ravishda ro'yxatdan o'tkazishi mumkin. Biroq boshqa akademiya/maktab tarbiyalanuvchisi yoki 2003-yildan katta futbolchini ro'yxatga qo'shishda futbolchilar soniga nisbatan belgilangan cheklov chegarasidan chiqmasligi kerak.

**10.9.** Yangi mavsum uchun hujjatlar rasmiylashtirib bo'lingach, klub 7 kun ichida o'z vakillari mehnat shartnomalarini olganliklari yuzasidan ma'lumotnomani elektron ko'rinishda taqdim etishi kerak. Ma'lumotnoma shartnoma tuzilgan har bir shaxs tomonidan alohida imzolangan bo'lishi shart.

**10.10.** Musobaqalarda qatnashish uchun badal to'lamagan, shuningdek, jarima sanksiyalari va boshqa qarzdorligi mavjud klublarga ariza hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ruxsat berilmaydi.

**10.11.** Futbolchining tibbiy ko'rikdan o'tganligi borasidagi ma'lumotnoma taqdim etilmaguniga qadar, u bilan tuzilgan shartnoma ro'yxatdan o'tkazilmaydi.

**10.12.** Ro'yxatdan o'tkazilmagan mehnat shartnomasi bilan bog'liq nizolar O'FA qoshida tashkil etiladigan Nizolarni hal etish palatasida ko'rib chiqiladi.

### **11-bob. Xorijlik futbolchilar va mutaxassislarni ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida shartlar**

**11.1.** O'zPFL musobaqalari uchun 5 nafargacha xorijlik futbolchini (keyingi o'rinlarda — legioner) ro'yxatdan o'tkazish mumkin. Bunda ulardan biri (yoki hammasi) OFKga a'zo mamlakat fuqarosi bo'lishi shart (4+1). OFKga a'zo davlatdan legioner mavjud bo'lmagan taqdirda klub ariza varaqasiga 4 nafardan ortiq chet ellik futbolchini kirita olmaydi.

**11.2.** Legioner futbolchi xizmatidan foydalanish uchun yilda bir marta legioner futbolchini ro'yxatdan o'tkazganlik uchun to'lov amalga oshiriladi. Mazkur to'lov futbolchini mavsum uchun birinchi bor ro'yxatdan o'tkazgan klub tomonidan to'lab beriladi.

**11.3.** Pro liga klubining legioner futbolchini ro'yxatdan o'tkazganlik uchun to'lovi Superliga klublariga belgilangan to'lov miqdorining teng yarmini tashkil qiladi.

**11.4.** Ayol legioner futbolchilarni hamda Birinchi liga klublari uchun legioner futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun to'lov talab etilmaydi.

**11.5.** Agar Pro liga klubi safida ro'yxatdan o'tgan legioner futbolchi transfer oynasida Superliga klubi tarkibida qayta ro'yxatdan o'tkazilsa, shu bobning 11.2-bandidan istisno tariqasida mazkur legioner uchun to'lov yangi klub tomonidan Superliga klublari uchun belgilangan to'lovning 50 foizi miqdorida qo'shimcha amalga oshiriladi.

Birinchi liga klubi safidan ro'yxatdan o'tgan legioner futbolchi transfer oynasida Superliga yoki Pro liga klubi tarkibida qayta ro'yxatdan o'tkazilsa, yangi klub mazkur legionerni ro'yxatdan o'tkazish uchun o'zi ishtirok etadigan ligaga belgilangan to'lovni amalga oshirishi kerak.

**11.6.** Agar legioner futbolchi uzluksiz ketma-ket to'rt mavsumni O'zbekiston klublarida o'tkazgan bo'lsa va 2021-yilgi mavsum tartib bo'yicha uning ketma-ket beshinchi mavsumi bo'lsa, mazkur legioner uchun to'lov amalga oshirilmaydi.

**11.7.** Agar legioner futbolchi bir klub safida ketma-ket ikkinchi mavsum uchun ham ro'yxatdan o'tkazilsa, mazkur futbolchi uchun belgilangan to'lov 50 foizga qisqartiriladi.

**11.8.** Legioner futbolchini ro'yxatdan o'tkazish uchun to'lov amalga oshirilmagunicha legioner futbolchi ro'yxatdan o'tkazilmaydi.

**11.9.** Klub xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazish uchun to'lov amalga oshiradi.

**11.10.** Legioner futbolchi va xorijiy mutaxassislarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun to'lov miqdori O'zPFL Ijroiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

### **12-bob. O'zPFL ro'yxatidan o'tgan futbolchilarning musobaqalardagi ishtirokini tartibga solish**

**12.1.** O'z klubi bilan tuzgan shartnomasi (kelishuv bitimi) sabab O'zPFL ro'yxatidan o'tgan futbolchining boshqa har qanday klub safida maydonga tushishi taqiqlanadi.

**12.2.** Superliga klubi 30–45 nafar (kamida 17 nafar futbolchi 1999-yil va undan kichik bo'lishi, 5 nafari esa 2003 va undan kichik bo'lishi lozim) futbolchini O'zPFL ro'yxatidan o'tkazishi kerak.

**12.3.** U-21 chempionatida 1999-yil yoki undan katta 2 nafar futbolchining ishtirok etishiga ruxsat etiladi.

**12.4.** Superliga va Pro liga klublarining U-18 chempionatida ishtirok etuvchi jamoasi uchun kamida 20 nafar shu yosh toifasidagi (2003) futbolchini ro'yxatdan o'tkazish kerak.

**12.5.** Pro liga klubi 20–25 nafar futbolchini O'zPFL ro'yxatidan o'tkazishi kerak.

**12.6.** Birinchi liga klubi 20–25 nafar futbolchini O'zPFL ro'yxatidan o'tkazishi kerak.

**12.7.** Ayollar Oliy va Birinchi ligasi jamoalari 20-25 nafar futbolchini O'zPFL ro'yxatidan o'tkazishi kerak. Bunda klub kamida 4 nafar 2003-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchini (keyingi o'rinlarda — yosh futbolchi) ro'yxatdan o'tkazishi shart. Ayollar jamoalari uchrashuv qaydnomasiga U-16 jamoasi safida ro'yxatdan o'tgan ko'pi bilan 4 nafargacha futbolchini kiritishga haqli. U-16 jamoasining kamida 10 nafar futbolchisi mahalliy futbolchi bo'lishi shart.

**12.8.** Futbolchi o'zi ro'yxatdan o'tgan klubning asosiy tarkibidan boshqa jamoalarida maydonga tusha olmaydi (Superliga futbolchisining U-21 chempionatida ishtirok etishi hamda Superliga va Pro liga asosiy tarkiblarning 2003-yil va undan kichik futbolchisining U-18 jamoasida to'p surishi bundan mustasno).

**12.9.** Klub bir klubga bir mavsumning o'zida 2 nafardan ortiq futbolchini ijaraga berishi mumkin emas. Shuningdek, klub bir mavsum davomida umumiy hisobda 6 nafardan ko'p futbolchini o'zi ishtirok etayotgan liganing boshqa klubiga ijaraga berishi mumkin emas.

**12.10.** Futbolchi ijaraga berilgan taqdirda u o'zining asl shartnomasi mavjud bo'lgan klubga qarshi maydonga tushishga haqli. Ijara shartnomasi tuzilayotganda mazkur bandga zid keluvchi shart qo'yish taqiqlanadi.

**12.11.** U-18 chempionatida to'p suruvchi futbolchi bilan yil oxirigacha bo'lgan kelishuv bitimi imzolanishi kerak. U-18 hamda farm-klub jamoasi tarkibida

ro'yxatdan o'tgan futbolchi shu jamoaning Superliga yoki Pro liga musobaqasidagi asosiy jamoasi tarkibida yilning istalgan davrida maydonga tushishi mumkin. Buning uchun U-18 jamoasi a'zosi bilan professional mehnat shartnomasi tuzilishi kerak.

**12.12.** U-18 jamoasi uchun ro'yxatdan o'tgan futbolchi shu jamoaning U-21 jamoasida kelishuv bitimi asosida o'z litsenziyasi bilan o'ynash huquqiga ega.

**12.13.** Superliga va Pro liga klublari o'z qoshidagi U-14, U-16 jamoalari uchun, shuningdek ayollar jamoalari o'z qoshidagi U-16 jamoasi uchun 20–22 nafar futbolchini musobaqaning alohida Nizomida ko'rsatilgan sanaga qadar O'zPFL ro'yxatidan o'tkazishi kerak.

### **13-bob. O'zPFL komissarining Musobaqalardagi faoliyati**

**13.1.** Uchrashuvni tashkil etish va o'tkazishni nazorat qilish uchun O'zPFL komissari tayinlanadi.

**13.2.** Uchrashuvni boshlash yoki uni o'tkazmaslik masalasi bevosita O'zPFL komissari tomonidan hal qilinadi.

**13.3.** O'zPFL komissarlari ro'yxati maxsus o'quv-seminarida ishtirok etib, uning yakuniga ko'ra tavsiya etilgan O'FA, O'zPFL hamda O'zPFLning hududiy vakillari orasidan shakllantiriladi hamda O'zPFL bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi.

**13.4.** O'zPFL komissarini uchrashuvga tayinlash O'zPFL bosh direktori tomonidan amalga oshiriladi.

**13.5.** O'zPFL komissari Musobaqa startidan 60 daqiqa avval zaxira hakami va klub rasmiysi bilan birgalikda uchrashuv qaydnomasiga futbolchilarning ismi-familiyasi, amplyasi va raqamlarini (o'sish tartibida), shuningdek, rasmiy shaxslarni lavozimini ko'rsatgan holda kiritishi kerak.

**13.6.** O'zPFL komissari uchrashuvni mazkur Reglamentga muvofiq tashkil etish, xavfsiz o'tkazilishini nazorat qilish, xuquq-tartibot organlari, stadion va klublar rasmiylari, futbolchilar, tomoshabinlar harakatlarini baholash uchun mas'ul hisoblanadi.

**13.7.** O'zPFL komissari uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish borasida bahsli masalalar yuzaga kelgan hollarda xal etuvchi ovozga ega.

**13.8.** Nazoratchi va hakamlar brigadasi O'zPFL komissariga bo'ysunadi.

**13.9.** O'zPFL komissarlari "Futbol yaxlitligini himoya qilish bo'yicha deklaratsiya"ni imzolaganidan keyingina Musobaqaga qo'yiladi.

**13.10.** O'zPFL komissari bilan bog'liq majburiyatlar va komissarlikka oid vakolatlar "Komissar yo'riqnomasi"da aks etadi.

### **14-bob. Musobaqalarda hakamlik qilish**

**14.1.** Hakamlik mazkur Reglament, "Futbol o'yini qoidalar" (2020/2021-yillarda chiqarilgan), shuningdek, IFAB tomonidan qabul qilingan o'zgartish va qo'shimchalar asosida amalga oshiriladi.

**14.2.** Musobaqalarda hakamlik qilishga O'FA Hakamlik-inspektorlik qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan hakamlar qo'yiladi.

**14.3.** O'FA va O'zPFL shtat xodimlari, hududiy futbol assotsiatsiyalari rahbarlari hakamlik qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

**14.4.** Superliga, Pro liga, Birinchi liga, O'zbekiston kubogi, O'zbekiston Liga kubogi, Superkubok, ayollar chempionati va birinchiligi kabi uchrashuvlarga hakamlar O'FA Futbol faoliyatini nazorat qilish maxsus inspeksiyasi bilan kelishilgan holda O'FA Hakamlar bo'limi tomonidan tayinlanadi. Mazkur tayinlov O'zPFL bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi.

**14.5.** U-21, U-18, U-16, U-14, U-10 kabi musobaqalarga hakamlar HA tavsiyasiga ko'ra O'FA Hakamlar bo'limi tomonidan tayinlanadi.

**14.6.** Jamoalarning uchrashuvga tayinlangan hakamlarni almashtirish borasidagi murojaatlari qabul qilinmaydi.

**14.7.** Agar uchrashuvga tayinlangan hakamlar brigadasi uchrashuvga yetib kela olmagan bo'lsa, O'FA Hakamlar bo'limi uchrashuvga HAning malakali hakamlaridan biri tayinlaydi. Yordamchilardan biri biror sababga ko'ra maydonga chiqa olmasa, zaxira hakami uning o'rnini egallaydi va zaxira hakami vazifasini ham bajaradi.

**14.8.** Uchrashuv boshlanishidan kamida bir soat oldin bosh hakam O'zPFL komissari bilan birga futbol maydonini ko'zdan kechiradi va uning sifatini 5 ballik tizimda baholaydi. Mazkur baho o'yin qaydnomasida ko'rsatiladi. Baholash jarayonida maydon bilan bog'liq muammo yuzaga kelsa, mezbon tomon mazkur muammoni uchrashuv startigacha hal qilishi shart.

**14.9.** Zaxira hakami va O'zPFL komissari klub rasmiylarining hujjatlarini tekshiradi. Ular jamoa rahbarlari bilan birgalikda futbolchilarni uchrashuvga qo'yish qoidalariga rioya qilinishi uchun mas'uldir.

**14.10.** Maydonga chiqishdan avval hakamlar brigadasi uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan futbolchilar litsenziyalarini tekshirishi, shuningdek, futbolchilarning raqamlari uchrashuv qaydnomasiga mos ekanini solishtirishi lozim.

**14.11.** Futbolchini almashtirish paytida zaxira hakamiga almashtirish varaqasi bilan birga maydonga chiqayotgan futbolchining litsenziyasi taqdim etiladi.

**14.12.** Zaxira hakami maydon perimetri bo'ylab texnik va boshqa zonalarga oid xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi uchun mas'uldir. U to'plarni uzatib turadigan yosh futbolchilarga va o'z vazifalarini bajaradigan boshqa texnik xodimlarga tegishli yo'riqnoma beradi.

**14.13.** Uchrashuv yakunlangandan so'ng bosh hakam O'zPFL komissari bilan birga 30 daqiqa davomida uchrashuv qaydnomasini to'ldirishi lozim. Agar

uchrashuv davomida ogohlantirishlar, chetlashtirishlar va futbolchilarning jarohatlari, shuningdek, stadionda tartibbuzarliklar yuz bergan bo'lsa, bosh hakam O'zPFL komissari bilan birgalikda bu haqda batafsil uchrashuv qaydnomasida bayon etishi kerak.

**14.14.** Uchrashuvdan oldin, uchrashuv davomida va uchrashuvdan keyin, shuningdek, hakamlar xonasida yoki hakamlar brigadasining yo'lida yuz bergan barcha noxushliklar va chetlashtirishlar (ikkinchi ogohlantirish va "yaqqol gol urish uchun imkoniyatidan mahrum qilish" uchun chetlashtirish bundan mustasno) haqida bosh hakam va uning yordamchilari O'zPFL komissarini ogohlantirib, O'zPFL bosh direktori nomiga bildirgi xati yuborishi shart.

**14.15.** Hakam uchrashuvda yuz bergan ogohlantirish yoki chetlashtirish, boshqa noxushliklar haqida ma'lumotni qaydnomaga kiritishni O'zPFL komissariga bildirmagan bo'lsa, u O'FA "Intizom kodeksi"ga muvofiq uchrashuvlarni olib borishdan chetlashtiriladi.

**14.16.** Uchrashuvlarda faoliyat olib boruvchi VAR tizimi hakamlari bilan bog'liq majburiyatlar O'FA hamda O'zPFL tomonidan alohida kelishilgan holda tartibga solinadi.

**14.17.** O'FA va O'zPFL o'zaro kelishgan holda Musobaqaga xorijlik hakamlar yoki hakamlar guruhini jalb qilishga haqli.

## **15-bob. Musobaqalarda nazoratchilik qilish**

**15.1.** Musobaqalarda nazoratchilik qilishga O'FA Hakamlik-inspektorlik qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan nazoratchilar qo'yiladi.

**15.2.** Musobaqalarda ishtirok etuvchi jamoalarning mavsum uchun qaydnomasiga kiritilgan shaxslarga nazoratchilik qilish taqiqlanadi.

**15.3.** Jamoalarning uchrashuvga tayinlangan nazoratchini almashtirish haqidagi murojaati qabul qilinmaydi.

**15.4.** Superliga jamoalari uchrashuviga tayinlangan nazoratchi U-21 chempionati uchrashuvida ham nazoratchilik qiladi.

**15.5.** Nazoratchi mazkur Reglament, "Futbol o'yini qoidalari" (2020–2021-yillarda chiqarilgan), shuningdek, IFAB tomonidan qabul qilingan o'zgartish va qo'shimchalar, "Futbol bo'yicha musobaqalarda hakamlik sifati uchun hakamlarni baholash bo'yicha yo'riqnoma" talablariga qat'i rioya etishi shart.

**15.6.** O'zPFL komissari bo'lmagan uchrashuvlarda nazoratchi stadion va tegishli xizmatlarning uchrashuvni o'tkazishga tayyor ekani, shuningdek, mazkur Reglamentda o'yin o'tkazish uchun talab qilingan boshqa hujjatlar mavjudligini tekshirishi lozim. Agar ushbu hujjatlar bo'lmasa yoki mazkur Reglament talablari bajarilmasa, nazoratchi klub direktori va stadion direksiyasidan aniqlangan kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish, stadionni uchrashuvga tayyorlashni talab qilishi zarur.

**15.7.** Uchrashuvdan oldin, uchrashuv davomida va uchrashuvdan keyingi chetlashtirishlar (ikkinchi ogohlantirish va “oxirgi umid foli” uchun chetlashtirish bundan mustasno), shuningdek, hakamlar xonasida yoki hakamlar brigadasining yo'lida yuz bergan barcha noxushliklar, hakamlikning sifati bo'yicha e'tiroz yoki shikoyatlar keltirilishi haqida nazoratchi O'zPFL bosh direktori nomiga bildirishnoma taqdim qilishi kerak.

**15.8.** Nazoratchilik sifati Hakamlik-inspektorlik qo'mitasining Tahlil komissiyasi tomonidan baholanadi. O'zPFLda saqlanuvchi nazoratchi bildirgisi Tahlil komissiyasi tomonidan tekshirilganidan so'ng, uning xulosasi hakamlar va nazoratchilar tomonidan bajarilgan ishlar yuzasidan moliyaviy tabelga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**15.9.** Nazoratchi uchrashuv yakunidan so'ng 48 soatdan kechiktirmay O'zPFLga o'rnatilgan shakldagi bildirgini elektron tarzda yetkazishi shart.

### **16-bob. Hakamlar qaroriga shikoyat yoki e'tiroz berish tartibi**

**16.1.** Hakamlarning qarorlari bo'yicha shikoyat yoki e'tiroz mazkur Reglamentga muvofiq beriladi va ko'rib chiqiladi.

**16.2.** Agar hakamlikning sifatiga nisbatan jamoalarning birida e'tirozlar mavjud bo'lsa, bosh murabbiy yoki sport direktori uchrashuv yakuniga yetganidan keyingi 30 daqiqa ichida bu haqda uchrashuv komissariga ma'lum qilishi zarur. Hakamlik sifati bo'yicha e'tirozlar O'zPFL komissari tomonidan uchrashuv qaydnomasida qayd etiladi va jamoa vakili tomonidan imzolanadi. Shundan so'ng 24 soat ichida ko'rsatilgan uchrashuvning videoyozuvi (uchrashuvdagi aniq holatlarning daqiqalari keltirilgan vaziyatning qisqacha ta'rifi) O'zPFLga taqdim etiladi. Bunda hakamning mazkur Reglament va “O'yin qoidalari” talablaridan kelib chiqqan harakat yoki harakatsizlikka nisbatan e'tiroz beriladi. Uchrashuv qaydnomasi O'zPFL komissari, nazoratchi va bosh hakam tomonidan imzolab bo'lingach, shikoyat va e'tirozlar qabul qilinmaydi.

**16.3.** Quyidagilar ko'rib chiqilmaydi:

- belgilangan muddatda kiritilmagan shikoyat yoki e'tirozlar;
- uchrashuv qaydnomasida qayd etilmagan shikoyat yoki e'tiroz;
- 48 soat davomida klub shikoyat yoki e'tiroz uchun pullik to'lovni amalga oshirmagan shikoyat yoki e'tiroz.

**16.4.** Shikoyat yoki e'tiroz mazmunida uni kiritish uchun asos bo'lgan sabablar, shuningdek, Reglamentning buzilishi va/yoki futbol o'yini qoidalariga rioya qilmaslik bilan bog'liq tafsilotlar keltirilishi lozim.

**16.5.** Uchrashuv o'tkazishni tashkil etish bilan bog'liq shikoyat yoki e'tiroz O'zPFL komissariga uchrashuv boshlanishidan kamida 60 daqiqa oldin yozma ravishda taqdim etiladi hamda O'zPFL komissari mazkur e'tiroznomani uchrashuv



bildirgisiga ilova qiladi. O'yin holati bo'yicha e'tiroz esa komissar tomonidan uchrashuv qaydnomasiga yoziladi.

**16.6.** Uchrashuv o'tkazishni tashkil etish bilan bog'liq shikoyat yoki e'tiroz keltirilgani haqida raqib jamoa/stadion rasmiysi ogohlantirilishi va shikoyatning bir nusxasi unga taqdim etilishi kerak.

**16.7.** Uchrashuv bilan bog'liq shikoyat yoki e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun shikoyat beruvchi tomonidan quyida keltirilgan miqdorda pullik to'lov O'zPFL hisob-raqamiga kelib tushganidan so'ng, O'zPFL shikoyat yoki e'tirozni tegishli qo'mitasida ko'rib chiqish uchun O'FAGA oshiradi. Shikoyat yoki e'tiroz mazkur shikoyat uchun to'lov amalga oshganidan keyingi 7 kun muddat ichida ko'rib chiqiladi. Uchrashuv bilan bog'liq shikoyat yoki e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun to'lovlar:

- Superliga, Pro liga, O'zbekiston kubogi, Liga kubogi, Superkubok uchun — 5 000 000 so'm (besh million);
- Birinchi liga, U-21, U-18, ayollar chempionati va kubogi uchun — 3 000 000 so'm (uch million).

**16.8.** Shikoyat yoki e'tiroz mazmuni uchrashuv videoyozuvi va qaydnomasi, shuningdek, O'zPFL komissari, hakamlar va nazoratchi bildirgisida aks etgan ma'lumotlar bilan asoslanishi kerak.

**16.9.** Shikoyat yoki e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun amalga oshirilgan pullik to'lovning qaytarilishiga shikoyat yoki e'tirozning qanoatlantirilishi, shikoyat yoki e'tirozda keltirilgan tafsilotlarning asoslangan va mazkur Reglamentga zid ekanligining tan olinishi asos bo'ladi.

**16.10.** Klub o'z shikoyat yoki e'tirozi ko'rib chiqilishi uchun to'lovni uchrashuvdan keyingi ikki bank ish kuni ichida amalga oshirmasa va bu vaqtda shikoyat yoki e'tiroz qaytarib ham olinmagan bo'lsa, mazkur klub shu bobning 16.7-bandida ko'rsatilgan to'lov miqdorining teng yarmini jarima sifatida to'lab beradi.

**16.11.** Agar futbol klubi kiritgan e'tiroz yoki shikoyatini 48 soat ichida qaytarib olsa, klubga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilmaydi.

### **17-bob. Futbol uchrashuvlarini o'tkazish tartibi**

**17.1.** Klubning ikki rasmiy uchrashuvi orasidagi vaqt oralig'i 48 soatdan kam bo'lmasligi lozim.

**17.2.** Uchrashuvlar davomiyligi 45 daqiqadan 2 taym bo'ladi. Taymlar orasidagi tanaffus maksimum 15 daqiqa. Kubok uchrashuvlari qo'shimcha taymlarga qadar cho'zilsa, uchinchi va to'rtinchi taymlarning har biri 15 daqiqadan, ular orasidagi tanaffus esa maksimum 5 daqiqadan iborat bo'ladi.

**17.3.** Ob-havo haroratidan kelib chiqib, uchrashuv bosh hakami klublardan birining taklifiga ko'ra, bo'limlar davomida bir martadan suv ichish uchun 1 daqiqadan ko'p bo'lmagan tanaffus e'lon qilishi mumkin.

**17.4.** Uchrashuv oldi jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi (uchrashuv startigacha):

- 150 daqiqa — O'zPFL komissarining stadiongacha kelishi;
- 90 daqiqa — inspektor va hakamlarning kelishi;
- 90 daqiqa — jamoalarning kelishi;
- 60 daqiqa — uchrashuv qaydnomasini to'ldirish, futbolchilarning litsenziyalarini solishtirish;
- 50–20 daqiqa — chigalyozdi mashg'ulotlari;
- 15 daqiqa — futbolchilar libosi va ulardagi belgilar tekshiruvi, raqamlarning litsenziyaga muvofiqligi;
- 10-5 daqiqa — jamoalarning tribuna osti yo'lakchasida saflanishi.

Klublar O'zPFL tomonidan taqdim etilgan Countdown tartibiga qat'i rioya qilishi lozim.

**17.5.** Uchrashuv davomida almashtiriladigan futbolchilarning ruxsat etilgan soni:

- Superliga — 3 ta;
- O'zbekiston kubogi — 3 ta (+1 ekstra taymda);
- Liga kubogida — 3 ta (+2 tanaffus vaqtida, yo'qsa bu limit kuchini yo'qotadi);
- U-21 — 5 ta;
- U-18 — 5 ta;
- U-16 — 7 ta;
- U-14 — 7 ta;
- Pro liga — 3 ta;
- Birinchi liga — 5 ta;
- Ayollar Oliy ligasi — 3 ta;
- Ayollar Birinchi ligasi — 5 ta;
- U-16 ayollar — 7 ta.

Mazkur qoida epidemiologik sharoitdan kelib chiqib, o'zgartirishlar soni qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

**17.6.** Musobaqa ishtirokchilari O'FA tomonidan tavsiya etilgan professional futbol to'plaridan foydalanadi.

**17.7.** Chempionlar ligasidagi ishtiroki sabab OFK tomonidan taqdim etilgan to'plarga ega klublar O'zPFL musobaqalarida shu to'plardan foydalanishi mumkin emas.

**17.8.** Uchrashuv boshlanishidan 90 daqiqa avval klub rasmiysi elektron qaydnomaga futbolchilarning ismi-familiyasi, raqamlarini o'sish tartibida hamda amplusini, rasmiy shaxslarning ismi-familiyasi va lavozimini litsenziyada ko'rsatilgani bo'yicha kiritish uchun uchrashuv komissariga futbolchi va rasmiy shaxslar litsenziyasini taqdim etishi lozim.

**17.9.** Musobaqa ishtirokchilari uchrashuv qaydnomasiga 11 nafar asosiy va 7 nafar zaxira futbolchisini kiritishi mumkin. Shuningdek, qaydnomadan O'zPFL litsenziyaga ega bo'lgan 7 nafargacha rasmiy shaxs joy olishi mumkin. Rasmiy shaxslar orasida klub shifokorining bo'lishi majburiydir. Zaxira o'rindig'iga uchrashuv qaydnomasida bo'lmagan shaxs qo'yilmaydi.

**17.10.** Uchrashuv qaydnomasiga diskvalifikatsiya qilingan futbolchini kiritgan jamoaga:

- g'alaba qozonsa yoki o'yin durang bilan yakuniga yetsa, unga texnik mag'lubiyat yoziladi hamda klubga O'FA Intizom kodeksiga muvofiq jarima solinadi. Raqib jamoaga esa texnik g'alaba yoziladi. Shu bilan birga, ushbu uchrashuvda urilgan gollar bekor qilinadi, olingan ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchida qoladi;
- jamoa mag'lub bo'lgan taqdirda uchrashuv natijasi (gollar, ogohlantirish va chetlashtirish) o'z kuchida qoladi, jamoaga O'FA Intizom kodeksiga muvofiq jarima solinadi;
- bunday hol takrorlansa, O'zPFL Ijroqo'mi qarori bilan jamoa musobaqadan chetlashtiriladi;
- uchrashuv qaydnomasiga stadion hududiga yetib kelmagan futbolchini kiritish taqiqlanadi. Stadiongacha kechikib yetib kelgan futbolchini qaydnomaga uchrashuvga 20 daqiqa qolguniga qadar kiritish mumkin. Buning uchun klub rasmiysi uchrashuv komissariga murojaat qilishi kerak.

**17.11.** Maydon egalari qaydnomani birinchi bo'lib to'ldiradi. Jamoa nomidan qaydnomani imzolashga uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan bosh murabbiy yoki katta murabbiy haqlidir. Yoshlar tarkiblari o'rtasidagi uchrashuvlar qaydnomasini ushbu qaydnomaga kiritilgan, yoshlar tarkibi bilan ishlash uchun mas'ul bo'lgan jamoa murabbiyi imzolashi kerak.

**17.12.** Jamoa uchrashuvga belgilangan vaqtdan kechikib kelsa, o'yin komissari maydon egasi bo'lgan klub rahbariyati bilan kelishgan holda, uchrashuvni o'z vaqtida o'tkazish uchun barcha choralarni ko'rish zarur. Agar uchrashuvni belgilangan vaqtda o'tkazishning imkoni bo'lmasa, O'zPFL komissiyasi barcha tafsilotlarni o'rganib chiqib, so'ng ushbu uchrashuv bo'yicha qaror qabul qiladi. Jadvalda belgilangan uchrashuv kechiktirilishida aybdor klub O'FA "Intizom kodeksi"ga muvofiq jarimaga tortiladi. Jamoalardan biri o'yin boshlanish vaqtidan 30 daqiqa kechiksa, mazkur jamoaga nisbatan texnik mag'lubiyat yoziladi.

**17.13.** Litsenziya uchrashuvda ishtirok etish va tegishli zonaga kirish huquqini beruvchi yagona hujjat hisoblanadi. Bunda litsenziya egasi uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan bo'lishi shart. Superliga va Pro liga klublarining qolgan rasmiy vakillari faqatgina maxsus ruxsatnomalar (VIP PASS, FOP va OA) orqali tegishli zonaga qo'yiladi. Maxsus ruxsatnoma uchrashuvdan bir kun oldin o'tkaziladigan miting davomida komissar tomonidan tegishli shaxslarga taqdim

etiladi. O‘yinoldi mitingni tashkillashtirishga mahalliy koordinator javobgar hisoblanadi.

**17.14.** Jamoa rasmiy shaxslari zaxiradagi futbolchilar bilan birga texnik zonadagi maxsus ajratilgan joyda bo‘lishi lozim. Mehmon jamoa zaxira hakamining o‘ng tomonida, mezbon chap tomonida maydonga qarab joylashadi. Qaydnomaga kiritilgan shaxslarning ko‘ksida texnik zonaga kirishga ruxsat beradigan litsenziya bo‘lishi lozim. Epidemiologik holatlarda O‘zPFL zaxira o‘rindiqlarini stadionning boshqa hududiga ko‘chirishga haqli.

**17.15.** Zarur hollarda uchrashuv qaydnomasiga kiritilmagan tarjimon texnik zonaga kirishi mumkin. Bunda tarjimon uchrashuv komissaridan maxsus ruxsatnoma olgan bo‘lishi shart.

**17.16.** Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan zaxira futbolchilaridan faqat 6 nafariga o‘z zaxira o‘rindig‘iga yaqin darvoza ortidagi burchak bayrog‘i zonasida chigalyozdi mashqlarini bajarishga ruxsat beriladi. Bunda jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha murabbiy ishtirok etishi mumkin. Zaxiradagi futbolchilar libosi maydondagi futbolchilar va hakamlar libosidan farqlanishi lozim. Bunda mashg‘ulot o‘tkazayotgan futbolchilar to‘plardan foydalana olmaydi (darvozabon bundan mustasno).

**17.17.** Zaxira o‘rindig‘ida o‘tirgan shaxslar tomonidan tamaki va boshqa turdagi mahsulotlarni chekish va spirtli ichimliklar iste‘mol qilish taqiqlanadi. Shuningdek, mobil aloqa vositalaridan foydalanish taqiqlanadi (maxsus ruxsat etilgan radioaloqa vositalari bundan mustasno).

Jamoa bosh murabbiyi texnik zonada shippak, short hamda yengsiz futbolkada bo‘lishi taqiqlanadi.

**17.18.** Uchrashuvlar O‘zPFL tomonidan belgilangan muddat va vaqtlarda o‘tkaziladi. Ularning vaqti (kun va soat) quyidagi hollarda o‘zgartirilishi mumkin:

- oldindan taxmin qilishning imkoni bo‘lmagan fors-major vaziyat va hodisalarning yuzaga kelishi natijasida uchrashuvni o‘tkazish, boshlash, davom ettirish, qayta boshlash va tugatish imkoni bo‘lmaganida. Bunday hodisalar qatoriga avariya, yong‘in, suv toshqin, zilzila, epidemiologik va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek, musobaqa tashkilotchilari va futbolchilarga bog‘liq bo‘lmagan har qanday boshqa tafsilotlar kiradi. Bunday holatlarda uchrashuvning qachon davom ettirilishi masalasi O‘zPFL tomonidan belgilanadi. Uning qay tartibda davom etishi “Futbol o‘yini qoidalari–2021” asosida tartibga solinadi;
- musobaqa jadvaliga O‘zPFL tomonidan o‘zgartirish kiritilganida.

**17.19.** Elektr yoritish tizimi ishdan chiqishi yoki elektr yoritish tizimidagi muammo bir soat ichida bartaraf etilmagani uchun uchrashuvni boshlash, davom ettirish, qayta boshlash va tugatish imkoni bo‘lmasa, stadionning texnik holati va elektr yoritish tizimi ishdan chiqishi sababi bilan maydon egasi bo‘lgan klubga texnik mag‘lubiyat yoziladi.

## **18-bob. Futbol klublari, klublar rahbarlari va futbolchilarning majburiyati**

**18.1.** Futbol klublari o'zlarining ushbu Reglamentda belgilangan majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar hisoblanadi.

**18.2.** Futbol klublari, klublar rahbarlari, rasmiy shaxslari, futbolchilar va klublarning musobaqalarda ishtirok etuvchi boshqa xodimlari (keyingi o'rinlarda — klub rasmiy shaxslari) yuqori darajadagi intizom, tartiblilik, uyushqoqlik, o'zaro va tomoshabinlarga nisbatan hurmatni namoyish etib, ushbu Reglamentning barcha talablariga rioya qilishlari shart.

**18.3.** Klub o'z jamoasi a'zolarining xulq-atvori uchun bevosita mas'uldir. Ular uchrashuv komissari, inspektori va hakamlarining (keyingi o'rinlarda — uchrashuv rasmiy shaxslari) harakatlariga aralashishi taqiqlanadi.

**18.4.** Futbol klublari o'zlarining tomoshabinlari (jamo muxlislari), shuningdek, klub nomidan biror-bir uchrashuvda muayyan vazifani bajarayotgan har qanday shaxs xulqi uchun ham javobgardir.

**18.5.** Klublar rasmiylari hamda stadion rasmiylari uchrashuv o'tkazilishi bilan bog'liq zarur tashkiliy masalalarni hal etish uchun mas'uldir. Ular uchrashuv xavfsizligi hamda tez tibbiy yordam uchun mas'ul organlar bilan hamkorlikda uchrashuvdan oldin, uchrashuv davomida va uchrashuvdan keyin stadionda, unga tutashgan hududda intizom hamda jamoatchilik tartibini saqlash uchun barcha zarur choralarni ko'rishlari shart.

**18.6.** Futbol klublari o'ziga nisbatan chiqarilgan ogohlantirish va chetlatishlarni qayd etish jurnaliga ega bo'lishi kerak. Diskvalifikatsiyasi bor futbolchining maydonga tushirilgani uchun klub bevosita javobgar hisoblanadi.

**18.7.** Futbol klublari xalqaro turnir yoki xorijdagi o'quv-mashg'ulot yig'inlarining muddati va joyi aniq bo'lishi bilan bu haqda O'zPFLni xabardor qilishlari shart.

**18.8.** Mezbon jamoa Musobaqalarning rasmiy kalendar uchrashuvi boshlangunga qadar 20 kundan kech bo'lmagan muddatda O'zPFL ma'muriyatiga uchrashuvning boshlanish vaqti borasida taklif berishi zarur. O'zPFL uchrashuv vaqtini teletranslyatsiya huquqini qo'lga kiritgan kompaniya bilan kelishib belgilaydi.

**18.9.** Klub uchrashuv sanasini o'zgartirmoqchi bo'lsa, tegishli so'rov batafsil asoslangan yozma shakldagi murojaat bilan kalendar bo'yicha rejalashtirilgan muddatdan kamida 20 kun oldin O'zPFLga yuborilishi zarur.

**18.10.** Superliga, Pro liga hamda O'zbekiston kubogi musobaqalarida klublar uchrashuv startiga 24 soat vaqt qolgunicha uchrashuvda ishtirok etishi mumkin bo'lgan 23 kishilik kengaytirilgan ro'yxatni O'zPFLga taqdim etilishi kerak. Mazkur ro'yxatda aks etmagan futbolchi uchrashuvga qo'yilmaydi. Epidemiologik vaziyat

bilan bog'liq holatda tibbiy test natijalarini taqdim etmagan futbolchi va rasmiylar uchrashuv qaydnomasiga kiritilmaydi.

**18.11.** Futbol klublari uchrashuv boshlanishining rasmiy vaqtdan kamida 90 daqiqa oldin stadiongacha yetib kelishlari shart.

**18.12.** Uchrashuv mezboni bo'lgan klubga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

- mehmon jamoaning tegishli darajadagi mehmonxonadan o'rin-joylar bilan ta'minlashiga ko'maklashish;
- hakamlar brigadasini kiyinish xonasidan maydonga chiqishgacha va maydondan chiqishdan kiyinish xonasigacha, shuningdek, o'yindan oldin, o'yindan keyin hamda tanaffus paytida kamida 2 kishidan iborat jamoat tartibini saqlash organlari xodimlarining kuzatuvini bilan ta'minlash;
- hakamlar xonasida begona shaxslarning bo'lishiga yo'l qo'ymaslik (uchrashuvda ishlaydigan hakamlardan tashqari ushbu xonaga O'zPFL komissari va u tomonidan ruxsat etilgan shaxslargagina kirish uchun izn beriladi);
- rasmiy uchrashuv uchun O'zPFL tomonidan taqdim etilgan kamida 8 ta to'p taqdim etish;
- to'plarni uzatib turish uchun umumiy soni o'ntadan kam bo'lmagan va 12 yoshdan (epidemiologik sharoitda 18 yoshdan) kichik bo'lmagan, libosi maydondagi jamoalar va hakamlarning kiyimidan farqlanadigan yosh futbolchilar guruhini (keyingi o'rinlarda – ballboy) taqdim etishi (uchrashuv komissari O'zPFL bayrog'i bilan bog'liq yoki boshqa topshiriqlar yuzasidan mezbon jamoadan qo'shimcha yosh futbolchilar guruhini talab qilishi mumkin);
- ballboylar O'zPFL tomonidan taqdim etilgan ustki liboslarni kiygan bo'lishi hamda taqdim etilgan vositalardan foydalanishi kerak;
- Musobaqalarda O'zPFL madhiyasi komissar belgilab bergan vaqtda qo'yilishi shart.

**18.13.** Mezbon jamoa mehmon jamoaga quyidagilarni bepul taqdim etadi:

- sportchilarni uchrashuv o'tkaziladigan shahar doirasida vokzal yoki aeroportdan mehmonxonagacha borishlari, qaytishlari, mashg'ulotlar o'tadigan kunlarda mehmonxonadan stadiongacha borishlari va qaytishlari uchun kamida 42 o'rinli zamonaviy avtobus;
- rasmiy uchrashuv oldidan bir marta mashg'ulot o'tkazish uchun musobaqa o'tadigan stadionning futbol maydonini;
- rasmiy uchrashuv oldidan o'tkaziladigan mashg'ulot davomiyligi mashg'ulot jarayonigacha bo'lgan tadbirlardan tashqari 60 daqiqani tashkil qilishi kerak.

Bunda mashg'ulotning maydon qoplamasi sifatiga ta'siri O'zPFL komissari hamda uchrashuv bosh hakami tomonidan baholanadi;

- mehmon jamoa uyiga qaytishi uchun chiptalarni bron qilishda ko'maklashish;
- mehmon jamoa uchrashuvigacha o'n kundan kam bo'lmagan muddatda mezbon jamoaga o'zining kelish sanasi, delegatsiya a'zolarining soni, mashg'ulotlar vaqti haqida xabar berishi zarur (fors-major holatlari bundan mustasno). Bu talab o'z vaqtida bajarilmagan taqdirda joylashuv borasidagi e'tirozlar qabul qilinmaydi. Mehmon jamoani qabul qilishni tashkil etishga oid e'tirozlar yuzaga kelgan holda mehmon jamoa rahbari raport yozib, O'zPFL ma'muriyatiga murojaat qilishi mumkin.

**18.14.** Mezbon jamoa uchrashuv rasmiy shaxslarini shahar doirasida vokzal yoki aeroportdan mehmonxonagacha borishlari va qaytishlari, mashg'ulotlar o'tadigan kunlari mehmonxonadan stadiongacha borishlari va qaytishlari uchun transport bilan ta'minlashi kerak.

**18.15.** Musobaqalarda (final hamda o'tish o'yinlari bundan mustasno) o'z ish majburiyatlarini olib boradigan uchrashuvning rasmiy shaxslariga (VAR tizimi mutaxassislari bundan mustasno) ikki tomonga yo'lkira, yashash joyi va ovqatlanishini ta'minlash mezbon jamoa hisobidan amalga oshiriladi. Agar uchrashuv rasmiylari boshqa mamlakat assotsiatsiyasidan jalb etilsa, ularning yo'l bilan bog'liq xarajatlari tashabbus bildirgan tomondan amalga oshiriladi. Xorijiy hakamlarni kutib olish, ularning yashash joyi va ovqatlanishini ta'minlash mezbon jamoa hisobidan amalga oshiriladi. Final, o'tish o'yinlari, shuningdek, VAR tizimi mutaxassislarning barcha xarajatlari O'zPFL tomonidan amalga oshiriladi.

**18.16.** Mezbon jamoa (O'zPFL talabiga ko'ra mehmonlar ham) o'yin tugashi bilan 2 soat ichida O'FA inspektoriga hamda 2 kun muddat ichida O'zPFLga uchrashuvning raqamli shakldagi videoyozuvini talab qilingan formatda taqdim etishi shart. Bunda jamoalarning maydonga chiqish paytidan to kiyinish xonasiga qaytishlarigacha shartli ravishda taymer yoqilgan holda butun uchrashuv davomida uzluksiz suratga tushirilishi zarur.

**18.17.** Favqulodda holatlarda hamda epidemiologik vaziyatlarda musobaqalarning tashkiliy masalalari qo'shimcha Reglament bilan tartibga solinadi.

**18.18.** Reglamentga rioya qilmaganligi uchun futbol klublariga nisbatan O'FAning "Intizom kodeksi"ga muvofiq O'zPFL tomonidan jarima sanksiyalari qo'llaniladi.

## **19-bob. Musobaqa ishtirokchilarining liboslariga qo'yiladigan talablar**

**19.1.** Musobaqa ishtirokchilarining futbolkasiga futbol klubining ramzi tushiriladi. Ramzning o'lchamlari 100 sm<sup>2</sup> bo'lib, u futbolkaning tepa qismi chap tarafida joylashadi. Klub har beshinchi chempionlik maqomiga ega bo'lganida klub ramzining tepa qismida bir dona oltin yulduz ramzini aks ettirish huquqiga ega.

**19.2.** Futbolkaning o'ng yengida O'zPFL logotipi, chap yengida esa O'zPFL tomonidan taqdim etilgan Musobaqa titul homiysining ramzi bo'lishi lozim.

**19.3.** Futbolka orqa tomonining tepa qismida O'zPFL litsenziyasi va ariza varaqasida ko'rsatilgan (balandligi 5–8 sm. "Jersey M54" shriftida) futbolchining familiyasi (ismi yoki tahallusi) aks etgan yozuv hamda futbolchining litsenziyasida ko'rsatilgan futbolka raqami (balandligi 25–35 sm "Jersey M54" shriftida) bo'ladi. Shortining o'ng tomonida futbolchining futbolkasidagi raqam aks ettiriladi (balandligi 10–15 sm).

Aralash rangli futbolkada familiya (ism yoki taxallus) va raqam alohida rangdagi to'g'ri to'rtburchak yoki futbolka ranglariga proporsional rangda ko'rsatiladi. Futbolchining familiyasi (ism yoki taxallus) va raqami yozuvi bir xil rangda bo'lib, stadiondagi muxlislar, teletomoshabinlar va OAV vakillari o'qishi uchun oson bo'lishi tavsiya etiladi. Bunda U-21, U-18 hamda farm-klub jamoalarining formasi asosiy jamoa formasi bilan bir xil bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, U-21, U-18, farm-klub hamda asosiy tarkib futbolchilarining raqami bir-birini takrorlamasligi lozim. Ya'ni, asosiy tarkibda maydonga tushmoqchi bo'lgan U-21, U-18, farm-klub a'zosida boshqa yangi libosga ehtiyoj qolmasligi kerak.

**19.4.** Futbolchining futbolkadagi familiyasi o'zbek tilida lotin yozuvida ko'rsatilishi lozim. Xalqaro maydonda o'ynaydigan klublargagina familiyani (ism yoki taxallus) ingliz tilida yozishga ruxsat beriladi.

**19.5.** Klublar ro'yxatdan o'tish oldidan O'zPFLga yangi mavsum uchun liboslarning 3D formatini taqdim etishi, Musobaqa startiga 10 kun vaqt qolgunicha futbolchilar va darvozabonlar liboslarining asosiy va rezerv ranglari haqida to'liq axborot taqdim etishi lozim.

**19.6.** O'zPFL Superliga, Pro liga, O'zbekiston kubogi uchun jamoalar liboslarining rangini belgilaydi.

**19.7.** Darvozabon libosi ikkala jamoa futbolchilari va hakamlar libosidan farqlanishi lozim.

## **20-bob. Futbol klublarining OAV bilan ishlashiga oid talablar**

**20.1.** O'zPFL bosh axborot hamkorini belgilash huquqiga ega.

**20.2.** Futbol klubi o'z rasmiy saytiga ega bo'lishi shart.

**20.3.** Matbuot xizmati boshqa klub, shuningdek, O'zPFLga aloqador ma'lumotni ruxsatsiz chop etishga haqli emas. Ushbu talabga rioya etmaslik intizomiy sanksiya qo'llanilishiga asos bo'ladi.

**20.4.** Klublar matbuot xizmati o'z uyida o'tkazilgan uchrashuvlardan fotosuratlarni O'zPFL matbuot xizmati talabiga ko'ra taqdim etishi lozim.



**20.5.** Darvozalar chizig'i ortida faqat akkreditatsiyadan o'tgan, maxsus nimcha kiygan tele va fotomuxbirlar turishiga ruxsat beriladi. Ularning uchrashuv davomida harakatlanishi taqiqlanadi.

**20.6.** Superliga va Pro liga klublari bosh murabbiylari uchrashuvdan keyingi matbuot anjumanida ishtirok etishlari shart. Uchrashuv tugaganidan keyin 15 daqiqa oralig'ida mag'lub bo'lgan yoki mehmon jamoa birinchi bo'lib matbuot anjumaniga taklif etiladi.

**20.7.** Futbolchi va murabbiylar uchrashuvdan oldin va keyin bo'ladigan flesh-intervyuda ishtirok etishi shart. Translyatsiya huquqini qo'lga kiritgan kompaniya uchun flesh-intervyu berishdan bosh tortgan futbolchi yoki murabbiy klubiga nisbatan jarima qo'llaniladi.

**20.8.** Klub matbuot xizmati uchrashuvdan keyingi matbuot anjumanlarini o'tkazish uchun mas'ul hisoblanadi.

**20.9.** Matbuot xizmati vakili jamoa ishtirokidagi safar uchrashuvlariga borishi va matbuot anjumanlarida qatnashishi shart.

## **21-bob. Liga musobaqalarini o'tkazish formati**

### **21.1. Superliga va U-21 chempionati.**

Superliga va U-21 chempionatlari jami 26 turdan iborat ikki davrali tizimda o'tkaziladi. Bunda har bir klub 13 ta uy va 13 ta safar uchrashuvida ishtirok etadi. Bunda:

- U-21 chempionati uchrashuvlari asosiy tarkiblar ishtirokidagi uchrashuvdan bir kun oldin o'tkaziladi;
- Superligada 13 va 14-o'rinni egallagan jamoalar 2022-yilgi mavsumni Superligada o'tkazish imkoniyatini yo'qotadi va quyi ligaga tushiriladi;
- Superligada 12-o'rinni egallagan jamoa esa Superligadagi o'rnini saqlab qolish uchun Pro liganing 3-o'rnidagi jamoasiga qarshi o'tish o'yinida ishtirok etadi;
- o'tish o'yiniga Pro ligada uchinchi bo'lgan klub maydoni mezbonlik qiladi.

### **21.2. U-18 chempionati.**

Superliga va Pro liga klublarining U-18 jamoalari U-18 chempionatida birgalikda ishtirok etadi. Bunda har bir jamoa bir-biriga qarshi o'zaro bir martadan maydonga tushadi. Chempionatning uy-safar o'yinlari berger tizimiga ko'ra tashlangan qur'a orqali aniqlanadi.

### **21.3. U-16 va U-14 chempionatlari.**

Mazkur yoshdagi jamoalar ishtirokidagi chempionat formati ishtirokchi jamoalar sonidan kelib chiqib, alohida Nizom bilan tartibga solinadi.

### **21.4. Pro liga.**

Pro liga jami 28 turdan iborat ikki bosqichli va to'rt davrali tizimda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda 10 ta klub 9 ta uy va 9 ta safar (ikki davra) — jami 18 ta tur

uchrashuvda maydonga tushadi. 18-turdan keyin jadval teng ikki qismga bo'linadi. Bunda yuqori beshlik Superliga yo'llanmasi uchun kurashni davom ettiradi hamda har bir klub o'zaro yana 4 ta uy va 4 ta safar (yana ikki davra) — jami 8 ta uchrashuvda maydonga tushadi. Quyi beshlik Pro ligadagi o'rnini saqlab qolish uchun kurashni davom ettiradi hamda har bir klub o'zaro 4 ta uy va 4 ta safar (yana ikki davra) — 8 ta uchrashuvda maydonga tushadi. Shunda Pro liganing barcha ishtirokchilari umumiy 26 tadan o'yin o'tkazadi. Shuningdek:

- Pro liga musobaqasi natijasiga ko'ra 1-2 o'rinni egallagan jamoalar Superligaga to'g'ridan-to'g'ri yo'llanmani qo'lga kiritadi;
- Pro ligani so'nggi o'rinda yakunlagan jamoa 2022-yilgi mavsumni Pro ligada o'tkazish imkoniyatini yo'qotadi va quyi ligaga tushiriladi;
- Pro ligada 9-o'rinni egallagan jamoa esa Pro ligadagi o'rnini saqlab qolish uchun Birinchi liganing 2-o'rindagi jamoasiga qarshi o'tish o'yinida ishtirok etadi;
- o'tish o'yiniga Birinchi ligada ikkinchi bo'lgan klub maydoni mezbonlik qiladi.

#### **21.5. Birinchi liga.**

Birinchi liga musobaqasi formati ishtirokchi klublar soni aniq bo'lgach, mazkur Reglamentning shu bandiga kiritilgan o'zgartirish asosida tartibga solinadi.

#### **21.6. Ayollar Oliy ligasi:**

10 ta jamoa ikki bosqich o'yinlarida ishtirok etadi:

- birinchi bosqich uy-safar tizimida jami 18 ta turni tashkil etadi. Bunda har bir jamoa 9 ta uy va 9 ta safar uchrashuvda ishtirok etadi;
- ikkinchi bosqichda birinchi bosqich yakuniga ko'ra, 1–5 o'rindagi jamoalar o'zaro va 6-10 o'rindagi jamoalar o'zaro bir davra davomida kurash olib boradi. Jamoalarning o'yinlarni uy yoki safarda o'tkazishi berger jadvali asosidagi qur'a bilan aniqlab olinadi. Yakunda ayollar Oliy ligasining barcha ishtirokchilari umumiy 22 uchrashuvda maydonga tushadi (23 ta tur);
- Oliy ligada 10-o'rinni egallagan klub 2022-yilni Birinchi ligada o'tkazadi.

#### **21.7. Ayollar Birinchi ligasi.**

5 ta jamoa ishtirok etadi. Musobaqa markazlashgan holda o'tadi va u 5 turdan iborat bo'ladi. Bunda har bir ishtirokchi jamoa musobaqaning bitta markazlashgan turiga mezbonlik qiladi. Musobaqa yakuniga qadar har bir klub jami 8 tadan uchrashuvda maydonga tushadi. Bunda:

- turlarda barcha tashkiliy ishlar bilan bog'liq sarf-xarajatlar mezbon jamoa zimmasiga yuklanadi;
- Birinchi ligada 1-o'rinni egallagan klub 2022-yilni Oliy ligada o'tkazadi.

#### **21.8. U-16 chempionati (ayollar):**

22 ta jamoa ikki bosqich o'yinlarida ishtirok etadi:

- birinchi bosqich 5 ta mintaqaga bo'lingan holda o'tkaziladi. Bunda jamoalar o'zaro ikki martadan uy-safar tizimida bahs olib boradi. Har bir guruhdan eng

yaxshi natija ko'rsatgan 2 tadan jamoa – jami 10 ta jamoa ikkinchi bosqichga yo'l oladi;

- ikkinchi bosqichda 10 ta jamoa qur'a tashlash yo'li bilan ikki guruhga bo'linadi. Guruhlardagi 5 tadan jamoa markazlashgan musobaqada o'zaro bir martadan – jami 5 ta o'yinda maydonga tushadi. Guruhda egallagan o'rniga ko'ra jamoa ikkinchi guruhning shu o'rnini egallagan jamoaga qarshi bitta o'yinda ishtirok etadi. Ya'ni, guruhlar g'oliblari 1–2 o'rinlarni aniqlash uchun, guruhlarda ikkinchi bo'lgan jamoalar 3–4 o'rinlarni aniqlash uchun va shu ketma-ketlikda keyingi o'rinlardagi jamoalar 5–10 o'rinlarni aniqlash uchun o'zaro uchrashuvlarda ishtirok etadi.

## **22-bob. Kubok musobaqalarini o'tkazish formati**

### **22.1. O'zbekiston kubogi.**

O'zbekiston kubogi musobaqasida Superliga va Pro liga klublari ishtirok etadi. Birinchi liga jamoalari mazkur musobaqaga saralash uchrashuvlari orqali qo'shiladi. Superliga yoki Pro liga klublari qoshida tashkil etilgan farm-klublar O'zbekiston kubogi musobaqasida ishtirok eta olmaydi. Bunda:

- Musobaqaning guruh bosqichida 24 jamoa ishtirok etadi. Jamoalar 6 guruhga ajratiladi va guruhlarning har biri 4 jamoadan tashkil topadi;
- Musobaqaning barcha uchrashuvlari faqatgina bir marta o'tkaziladi. Guruh bosqichi o'yinlari 45 daqiqadan ikki taymdan iborat bo'ladi. Saralash va guruh bosqichidan keyingi pley-off o'yinlarida g'olibni dastlabki 90 daqiqa ichida aniqlashning imkoni bo'lmasa, har biri 15 daqiqadan iborat ikki qo'shimcha taymlar belgilanadi. Shunda ham g'olib aniqlanmasa, navbat "Futbol qoidalarini–2020/21" asosida penaltilar seriyasiga beriladi;
- Superliga va Pro liga klublari Musobaqaning guruh bosqichiga to'g'ridan-to'g'ri yo'llanmani qo'lga kiritadi. Osiyo Chempionlar ligasining guruh bosqichida o'ynash huquqini qo'lga kiritgan klublar esa ishtirokini musobaqaning 1/8 final bosqichidan boshlaydi;
- xalqaro maydonda to'p suradigan hamda Superliga va Pro liganing O'zbekiston kubogida ishtirok eta olmaydigan jamoalarining umumiy sonidan kelib chiqib, Birinchi liga klublari ishtirokida o'tkaziladigan saralash o'yinlari orqali Musobaqaning guruh bosqichi ishtirokchilari soni 24 taga yetkaziladi;
- 6 guruh yakunlariga ko'ra, har bir guruhda dastlabki ikki o'rinni qo'lga kiritgan klublar 1/8 final ishtirokchisiga aylanadi;
- 1/8 final bosqichiga to'g'ridan-to'g'ri yo'llanma olgan klublar sonidan kelib chiqib, guruhlarda 3-o'rinni egallagan nechta klubning 1/8 finalga yo'l olishi aniqlab olinadi;

- guruhlarda har bir jamoa 3 tadan o'yinga ishtirok etadi. Guruh o'yinlari yakuniga ko'ra turnir jadvali mazkur Reglamentning 23-bobi bilan tartibga solinadi;
- guruhda mezbon va mehmon maqomini oldindan ko'rsatilgan format bo'yicha qur'a aniqlab beradi. Qur'a natijasiga ko'ra, guruhdagi jamoalardan ikkitasi ikki uy va bir safar uchrashuvida, yana ikkitasi esa bir uy va ikki safar uchrashuvida ishtirok etadi;
- pley-off bosqichi juftliklari qur'a yordamida aniqlanadi. Pley-off kombinatsiyasi qur'a oldidan taqdim etiladi va Musobaqa yakuniga qadar o'zgarmaydi;
- O'zbekiston kubogining final uchrashuviga mezbonlik qilish istagini bildirgan stadionlar guruh bosqichiga qur'a tashlangunga qadar alohida ariza bilan O'zPFLga murojaat qilishlari lozim. O'zbekiston kubogi uchun qur'a marosimi oldidan final o'yini o'tadigan stadion qur'a orqali aniqlab olinadi;
- O'zbekiston kubogining final uchrashuviga mezbonlik qilish bo'yicha arizalar kelib tushmasa, final stadioni O'FA tomonidan aniqlab beriladi.

### **22.2. Ayollar o'rtasida O'zbekiston kubogi.**

O'zbekiston kubogi musobaqasida Oliy liga hamda Birinchi liganing 15 ta jamoasi g'oliblik uchun kurash olib boradi. Bunda:

- mag'lub bo'lgan jamoa musobaqani tark etadi;
- kubok bellashuvlari 1/8 finaldan boshlanadi. O'zbekiston kubogining amaldagi sohibi kubok musobaqasiga 1/4 final bosqichidan qo'shiladi;
- kubok uchrashuvlari faqatgina 1 ta uchrashuvdan iborat bo'ladi. Mezbon jamoalar nomiga qur'a tashlash yo'li bilan oydinlik kiritib beriladi;
- kubok uchrashuvlarining asosiy vaqti durang bilan yakuniga yetsa, 15 daqiqadan ikki qo'shimcha taymlar belgilanadi. Shunda ham g'olibni aniqlashning imkoni bo'lmasa, navbat penaltilar seriyasiga beriladi.

### **22.3. O'zbekiston Superkubogi.**

Yangi mavsum avvalida O'zbekiston chempioni hamda O'zbekiston kubogi sohibi o'rtasida Superkubok uchrashuvi o'tkaziladi. Agar bir klub ham chempionlikni, ham O'zbekiston kubogini qo'lga kiritisa, u holda Superkubok uchrashuvida Superliganing (ayollar Oliy ligasining) dastlabki ikki o'rinni egallagan jamoa o'zaro kurash olib boradi. Bunda:

- Superkubok uchrashuvi neytral maydonda bo'lib o'tadi;
- Superkubokda mamlakat chempioni avtomatik ravishda mezbon maqomida bo'ladi;
- Superkubok uchrashuvlarining asosiy vaqti durang bilan yakuniga yetsa, 15 daqiqadan ikki qo'shimcha taymlar belgilanadi. Shunda ham g'olibni aniqlashning imkoni bo'lmasa, navbat penaltilar seriyasiga beriladi.

### **22.4. Liga kubogi.**

Liga kubogi musobaqasi formati ishtirokchi klublar soni aniq bo'lgach, mazkur Reglamentning shu bandiga kiritilgan o'zgartirish asosida tartibga solinadi.

Liga kubogining o'tish yoki o'tmasligi epidemiologik sharoit hamda u keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan muammolar o'rganilganidan keyingina alohida hal etiladi.

### **23-bob. Musobaqa g'oliblarini aniqlash**

**23.1.** Jamoalarning musobaqadagi o'rinlari to'plangan ochkolar yig'indisiga ko'ra aniqlanadi. Uchrashuvdagi g'alaba uchun 3 ochko, durang uchun 1 ochko, mag'lubiyat uchun 0 ochko yoziladi.

**23.2.** Ikkita va undan ko'p jamoalar to'plagan ochkolar teng bo'lib qolsa, jamoalarning o'rni quyidagicha aniqlanadi:

- o'zaro uchrashuv(lar) natijasiga ko'ra (olingan ochkolar, urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqi, urilgan to'plar, raqib maydonida urilgan to'plar nisbati);
- yuzma-yuz uchrashuv(lar)da texnik mag'lubiyatga uchragan jamoa(lar) eng quyi o'rinni egallaydi;
- barcha uchrashuvlarda urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar nisbatiga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda kiritilgan gollar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda erishilgan g'alabalar soniga ko'ra;
- safar o'yinlarida erishilgan g'alabalar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda raqiblar maydonida urilgan to'plarning soniga ko'ra;
- mazkur ko'rsatkichlarning hammasi teng bo'lsa, klublarning U-21 jamoalari natijasiga e'tibor qaratiladi. Agar vaziyat chempionni yoki OFK Chempionlar ligasida ishtirok etish huquqini beradigan o'rinlarni aniqlab beradigan bo'lsa, betaraf maydonda "oltin" uchrashuv o'tkaziladi.

**23.3.** Musobaqa ishtirokchilari uchun O'zPFL matbuot xizmati tomonidan tarqatiladigan materiallar musobaqalarning davom etishi va natijalarini aks ettiradigan rasmiy ma'lumot hisoblanadi.

### **24-bob. Musobaqa g'oliblarini taqdirlash**

**24.1.** O'zbekiston Superkubogida g'olib bo'lgan klublarga Superkubok topshiriladi.

**24.2.** O'zbekiston kubogida g'olib bo'lgan klublarga maxsus O'zbekiston kubogi topshiriladi.

**24.3.** O'zbekiston Liga kubogida g'olib bo'lgan klubga Liga kubogining maxsus sovrini topshiriladi.

**24.4.** Final uchrashuvlarida ishlagan hakamlar brigadasi O'zPFL maxsus nishoni bilan taqdirlanadi.

**24.5.** O'zbekiston Superligasida 1-o'rinni egallagan klubga O'zbekiston chempioni uchun atalgan kubok hamda 50 dona "oltin" medallar taqdim etiladi.

**24.6.** Agar chempion muddatdan oldin aniqlansa, kubok hamda medallar klubga keyingi rasmiy uy yoki safar uchrashuvida topshiriladi.

**24.7.** O'zbekiston Superligasida ikkinchi va uchinchi o'rinni egallagan klublarga 50 dona "kumush" va "bronza" medallar topshiriladi.

**24.8.** U-21 chempionatida 1, 2, 3-o'rinlarni egallagan klublarga 35 donadan "oltin", "kumush", "bronza" medallari beriladi.

**24.9.** Pro ligada 1-o'rinni egallagan klubga Pro liga kubogi taqdim etiladi.

**24.10.** U-18 chempionatida dastlabki uch o'rinni qo'lga kiritgan klublarga 35 donadan "oltin", "kumush" va "bronza" medallari beriladi.

**24.11.** Ayollar Oliy ligasida 1, 2, 3-o'rinlarni egallagan klublarga 35 donadan "oltin", "kumush", "bronza" medallari beriladi. Chempion jamoa kubok bilan taqdirlanadi.

**24.12.** Ayollar Birinchi ligasida g'olib bo'lgan jamoaga birinchilikning ko'chma kubogi beriladi.

**24.13.** U-16, U-14 hamda ayollar U-16 chempionatlarida dastlabki uch o'rindan joy olgan jamoalarga mos ravishda 30 donadan "oltin", "kumush" hamda "bronza" medallari taqdim etiladi.

**24.14.** Taqdirlash atributikalari O'zPFL hisobidan tayyorlanadi.



**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE